

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI  
TOSHKENT ISLOM UNIVERSITETI**

**XODJIMURATOVA Z.Z.**

***“Internetda umumiy va maxsus  
dasturlash”***

*“Internetda umumiy va maxsus dasturlash” kursidan  
TIU talabalari uchun o'quv qo'llanma*



**TOSHKENT  
“UNIVERSITET”  
2008**

Ushbu qo'llanmada global jahon tarmog'i – Internet uchun mo'ljallangan HTML tili, brauzer dasturlari, ularning turlari, farqlari, web-muharrirlar, ularning afzalliklari, farqlari, web-hujjatning asosiy funksional bo'limlari, ularni aniqlash qoidalari, HTML hujjatida gipermatnli ishorani hosil qilish qoidalari, yakorlarni hosil qilish qoidalari, web-sahifalarda tasvirlarni joylashtirish qoidalari, HTML hujjatini bezash teglari, matn bo'laklari elementlarini aniqlovchi teglar, multimedia fayllari, ularning formatlari, multimedia obyektlari, web-sahifaga multimedia obyektlarini joylashtirish usullari, HTML tilida turli xildagi jadvallarni hosil qilish qoidalari, freymlar, ularni hosil qoidalari, Front Page Express muharriri yordamida web-sahifalar tuzish, saytda o'zgaruvchilardan foydalanish va sayt mundarijasini shakllash, sayt axborotining qidiruv mashinalarida o'rnatilish texnologiyasi, saytga kirish hisoblagichi, sayt statistikasi, qidiruv formasini joylashtirish, tasvir-xaritaning hosil qilish texnologiyasi va boshqa mavzular haqida tushunchalar yoritilgan. Barcha mavzular dasturlar listingi va ularning natijalari bilan bayon etilgan.

Qo'llanmada bayon etilgan va o'z aksini topmagan html-elementlari haqida to'liqroq ma'lumot 1-ildovada keltirilgan.

CSS – stillar kaskad jadvallari haqida qo'shimcha ma'lumot 2-ildovada keltirilgan.

Standart ranglar nomlari va kodlari 3-ildovada keltirilgan bo'lib, saytning dizaynini tanlashda foydalanish mumkin.

Butun dunyo domenlari va milliy domenlar 4-ildovada hamda dastur mavzulariga mos Internet manbalar ro'yxati 5-ildovada aks ettirilgan.

O'quv qo'llanma 5521900 – "Informatika va axborot texnologiyalari" yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, undan boshqa oliy o'quv yurti talabalari, mustaqil o'rganuvchilar ham foydalanishlari mumkin.

### ***Taqrizchilar:***

Texnika fanlari doktori, professor Sh. Nuritdinov,  
Texnika fanlari nomzodi N. Tursunov

Toshkent islom universiteti o'quv-uslubiy kengashi majlisining  
"\_\_\_" \_\_\_\_\_ 2008 yildagi \_\_\_-bayonnomasi bilan nashrga tavsiya qilingan.

**ZUXRA ZAYNITDINOVNA XODJIMURATOVA**

**INTERNETDA UMUMIY VA MAXSUS DASTURLASH**  
(o'quv qo'llanma)

## MUQADDIMA

Shaxsiy kompyuterlarning soni tobora ko'payib borayotgan hozirgi davrda dunyo miqyosidagi Internet global tarmog'idan foydalanuvchilarning soni ham soat sayin oshib bormoqda. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi yoshlarining dunyoga tanilishiga hissa qo'shish uchun yoshlarga xalqaro WWW to'rida ishlashni o'rgatish, O'zbekistonning hamma jabhalari haqidagi yangidan-yangi Web-saytlar tuzib, Internetga joylashtiishni o'rgatish oldimizda turgan dolzarb vazifalarimizdan biridir.

Ushbu qo'llanmada global jahon tarmog'i – Internet uchun mo'ljallangan HTML tili, brauzer dasturlari, ularning turlari, farqlari, web-muharrirlar, ularning afzalliklari, farqlari, web-hujjatning asosiy funksional bo'limlari, ularni aniqlash qoidalari, HTML hujjatida gipermatnli ishorani hosil qilish qoidalari, yakorlarni hosil qilish qoidalari, web-sahifalarda tasvirlarni joylashtirish qoidalari, HTML hujjatini bezash teglari, matn bo'laklari elementlarini aniqlovchi teglar, multimedia fayllari, ularning formatlari, multimedia ob'yektlari, web-sahifaga multimedia ob'yektlarini joylashtirish usullari, HTML tilida turli xildagi jadvallarni hosil qilish qoidalari, freymlar, ularni hosil qoidalari, Front Page Express muharriri yordamida web-sahifalar tuzish, o'zgaruvchilardan foydalanish va sayt mundarijasini shakllash, sayt axborotining qidiruv mashinalarida o'rnatilish texnologiyasi, saytga kirish hisoblagichi, sayt statistikasi, qidiruv formasini joylashtirish, tasvir-xaritaning hosil qilish texnologiyasi va boshqa mavzular haqida tushunchalar yoritilgan. Barcha mavzular dasturlar listingi va ularning natijalari bilan bayon etilgan.

Mazkur fanni o'zlashtirish jarayonida talabalar bevosita kompyuter bilan muloqotda bo'lib, yuqorida sanab o'tilgan mavzular bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarishlari shart. Ma'ruzalardan olingan nazariy bilimlarning hamda amaliy mashg'ulotlardagi ko'nikmalarning amaliy tadbirg'i sifatida laboratoriya ishlari bajariladi va kurs nihoyasida kurs ishi topshirilib, himoya qilinadi.

## KIRISH. ASOSIY TUSHUNCHALAR

Internet – bu butun jahon “tarmoqlar tarmog’i”. U turli apparat-dasturiy arxitekturaga asoslanib qurilgan hisoblash tizimlari va lokal tarmoqlarini o’zida birlashtiradi. Tarmoq bo’yicha ikkita kompyuterning harakatlanishini amalga oshirishda ulardan biri axborot manbasi (internet serveri) sifatida, ikkinchisi esa ma’lumotlarni qabul qiluvchi (internet-mijoz) sifatida ishlatiladi. Server ma’lumotlarni tayyorlaydi, mijoz (klient) esa ularni qabul qiladi va qayta ishlaydi. Ayrim hollarda ma’lumot sifatida server tayyorlagan dasturlar matni keladi, mijoz esa ularni bajarishi lozim bo’ladi.

Butun jahon tarmog’i shartlarida kompilyasiya va ob’ekt kodini hosil qilish ma’noga ega bo’lmay qoladi, chunki kompilyasiya jarayonida hosil bo’lgan kodni qanday hisoblash tizimida bajarish kerakligini oldindan bilib bo’lmaydi. Shu sababga ko’ra server ob’ekt kodi yoki assembler kodini tarmoq bo’yicha uzata olmaydi. Shuning uchun internet tarmog’ida dasturlashtirishning asosiy xususiyati bo’lib interpretasiyalanuvchi tillarni dasturlashtirishning asosiy vositalari sifatida ishlatilishi hisoblanadi. Server mijozning hisoblash tizimi arxitekturasi qanday bo’lishini oldindan bilmagani sababli dastur kodini interpretasiya qiladi (ob’ekt kodini emas!). Shunda server har doim faqat bitta usul bilan dastur kodini tayyorlaydi. Bu holatda internet-mijozga yuklanish oshib ketishi mumkin. Masalani biroz osonlashtirish mumkin: internet-server joriy dasturning oxirgi darajadagi kodini emas, balki mijoz tomonidan bajarilishga mo’ljallangan past darajadagi oraliq kodni hosil qiladi. Bunda ma’lumot almashishda yana ikkita dastur ishtirok etadi: server tomonidagi kompilyator (to’g’rirog’i translyator), dastur joriy kodini yuqori darajadagi oraliq kodga translyatsiya qilib beradi hamda mijoz tomonidagi interpretator, mijozning hisoblash tizimi arxitekturasiga bog’liq bo’lmagan holda oraliq kodning bajarilishini ta’minlaydi.

Global tarmoqda ko’pgina dasturlarni ishlatishda aynan shu sxema ishlaydi. Bu sxemani amalga oshirish uchun ko’p texnik va til vositalari mavjud. Ularning ichida HTML ning o’z o’rni mavjud.

WWW da turli yo'llar orqali tegishli ma'lumotga yetib borish va bu ma'lumotni ko'rish, saqlash, chop etish va boshqa ishlarni bajarish mumkin. WWW da yo'llar sifatida telefon yo'llari ishlatiladi. Internetda asosiy til sifatida HTML tili ishlatiladi. HTML tili dasturlashtirish tillari safiga kirmaydi. U gipermatnni belgilash tilidir. Uning o'zining strukturasi mavjud. Keyinchalik Internet uchun turli dasturlashtirish tillari ishlab chiqildi. Ular asosan skriptlar (**script**) va stsenariylar tuzishga hamda mijoz-server texnologiyasida ishlashga asoslangan dinamik saytlar tuzish imkonini beradi. Lekin, umuman olganda, ular HTML tili strukturasi ichida skriptlarni ishlatadi. Buni tushunish uchun alohida protsedura yoki funktsiyani chaqirib ishlatish sifatida qarash mumkin. HTML tilining o'zida protsedura va funktsiya tushunchalari mavjud emas.

## **WEB-SAHIFALAR. ULARNI YARATISH BOSQICHLARI**

Web-sahifalar tushunchasi «web sites» so'zlaridan olingan bo'lib, ular internetda mavjud bo'lgan sahifalardir. Web-sahifalar har doim elektron ko'rinishda va internet uchun ishlab chiqilgan bo'ladi.

Web-sahifalar tushunchasini giperishora va gipermatn degan tushunchalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Giperishora – bu gipermatnga ko'rsatgich bo'lib, uni quyidagi xususiyatlari bo'yicha axborotning boshqa ko'rinishlaridan ajratib olish mumkin:

- Sichqoncha ko'rsatgichini ob'yektga (matn, rasm va b.) olib borilganda uning ko'rinishi o'zgaradi, ya'ni sichqoncha ko'rsatgichi asosiy ko'rinish shaklidan qo'lning ko'rsatkich barmoqlari ko'rinishiga o'tadi;

- Matnning rangi o'zgaradi (ko'pincha moviy rang);

- Matn tagiga chizilgan bo'ladi.

Shunday giperishoralar ham borki, u ko'rsatayotgan joyda nafaqat matn, balki rasm yoki boshqa ko'rinishdagi axborot bo'lishi ham mumkin.

Gipermatn bu giperishora bosilgandagi ekranga chiqadigan axborotdir. Gipermatnning ichida giperishoralar ham bo'lishi mumkin. Har bir gipermatnda dastlabki sahifaga o'tish yo'li berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Web-master – mutaxassis bo'lib, web-sahifalarni hosil qilish, ularni qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi kasb egasi.

Brauzer – web-sahifalarni ko'rish uchun ishlatiladigan dasturiy vosita.

Web-sahifa hosil qilishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- Tashkil qilish ishlarining maqsadi, ya'ni kelajakda sahifadan foydalanish qanday bo'lishi kerak.
- Bu maqsadga erishish uchun tanlanadigan usul va texnologiyalar.
- Shu mavzu bo'yicha qilingan ishlar.
- Nashr qilingan manbalar.
- Foydalanuvchilar guruhlarining turlari.
- O'rnatilmagan tasvirlar bilan bog'lanish paytida uning hajmini **Kb** da ko'rsatgan foydali.
- Minglab va millionlab ranglarni o'zida jam qilgan ranglardan foydalanish maqsadga muvofiq emas.
- Tuzilgan dasturga imzo qo'yish ma'quldir.
- Web-saytga yangiliklar (What's new) sahifasini qo'shish kerak.

Front Page Express dasturi Microsoft Officening kengaytirilgan versiyasi tarkibiga kiruvchi eng sodda sahifalarni hosil qilish, bezash, tahrirlash hamda ko'rish uchun mo'ljallangan WYSIWYG rejimida ishlovchi dastur hisoblanadi.

Front Page Expressda web-sahifa tuzish uchun quyidagi ishlar bajariladi:

1. **Файл/Создать** buyrug'i beriladi.
2. Yangi sahifa ro'yhatidan **“Мастер личной домашней страницы”** komandasi tanlanadi.
3. Kerakli ko'rsatmalar tanlanib, **“Далее”** tugmasi bosiladi.

Front Page Expressning quyidagi imkoniyatlari bor:

1. Fon qo'yish imkoniyati
2. Dinamik ob'ektlarni qo'yish
3. ActiveX ni qo'shish
4. Teglarini qo'shish
5. Teglarini o'sha joyni o'zida o'zgartirish mumkin va hokazo.

## **HTML TILI HAQIDA**

Web-sahifalar yaratish uchun, odatda, HTML tili xizmat qiladi. HTML abbreviaturasi ingliz tilidagi “Hyper text markup language” so'zlaridan olingan bo'lib, bu format internet uchun maxsus ishlab chiqilgan. Boshqa dasturlar tillaridan xabardor odam uchun html tilida dastur tuzish uncha qiyin bo'lmaydi. Uning ham boshqa dasturlash tillariga o'xshash o'zining alfaviti, programma elementlari, til strukturasi, komandalari, boshqacha aytganda teglari mavjud. Bu teglardan tashqari html tilida hujjatning funksional bo'limlarini aniqlash mumkin. Gipermatnli ishoralardan va yakorlardan foydalanish mumkin. Web-sahifalarga rasmlarni qo'shish mumkin, shriftning stilini boshqarish mumkin, ro'yxatlarni hosil qilish mumkin, sahifalar, multimedia ob'yektlaridan foydalanish mumkin, jadvallarni qo'shish mumkin va boshqa amallardan foydalanish va ishlatish mumkin.

Har qanday web-sahifa html deb nomlangan maxsus tilda yozilgan bo'ladi. Brauzerlar web-sahifalarni shu tilning maxsus kodlarida yozilgan matnga mos holda tasvirlaydilar.

Internetning barcha web-sahifalarining umumiy bo'lgan yagona tomoni shundaki, ular html vositalari yordamida yaratilgan.

HTML tili bu gipermatnni belgilab chiqish tilidir. U oddiy matnni web-sahifa ko'rinishida ifodalovchi qoidalarni aniqlaydi.

HTML formatiga o'girish uchun ko'pgina vositalardan foydalaniladi va ular quyidagi guruhlariga bo'linadi:


- Grafik
- Dasturiy

Grafik instrumentlardan foydalanilganda, u yoki bu darajadagi aniqlikda sahifani uzatuvchi rejim – WYSIWYG bilan ishlashga tog'ri keladi. Bu rejim HTML ko'rinishidagi axborotni brauzer oynasida qanday bo'lishini ko'rsatadi.

## **BRAUZERLAR, ULARNING TURLARI**

Barcha yaratilgan web-sahifalar brauzer dasturlar yordamida ekranda tasvirlanadi. Brauzer dasturlar dastlab oq-qora rejimda faqat matnli axborotlarni tasvirlash uchun xizmat qilgan. Keyinchalik kompyuterlarning rivojlanishi bilan barcha brauzer dasturlari ham takomillasha bordi. Hozirgi kunda bu dasturlar matnli, grafikali, audio, video va animatsiya axborotlarni ekranda tasvirlash imkoniyatiga ega. Brauzer dasturlari tekinga beriladigan va pulga sotiladigan dasturlarga bo'linadi. Quyida eng keng tarqalgan brauzer dasturlari bilan tanishib chiqamiz:

1. Tekinga tarqatiladigan eng ko'p tarqalgan va eng raqobatbardosh brauzer dasturi bu **Microsoft Internet Explorer** hisoblanadi (1-rasm).




1-rasm. MS Internet Explorer brauzerining oynasi.

Ushbu brauzerni quyidagi **URL** adres bo'yicha olish mumkin:  
[WWW.microsoft.com/windows/ie\\_intl/ru/download](http://WWW.microsoft.com/windows/ie_intl/ru/download)

2. Microsoft Internet Explorer brauzerining raqobatchisi **Netscape Navigator** brauzeridir. Bu brauzer asosan Unix va OS/2 operatsion tizimlarida ishlatiladi.


Uning **URL** adresi [WWW.netscape.com](http://WWW.netscape.com). Uning umumiy ko'rinishi 2-rasmda keltirilgan:






2-rasm. **Netscape** brauzeri oynasining umumiy ko'rinishi.

3. **Opera Software** brauzeri. Ushbu dastur 1994 yili Norvegiyada ishlab chiqildi. Dastlab pulga tarqatiladigan dasturlar sarasiga kirar edi, lekin hozirgi kunga kelib uni tekinga [WWW.operasoftware.com](http://WWW.operasoftware.com) adres bo'yicha olish mumkin. Ushbu brauzer ham keng tarqalgan brauzer-dasturlardan biri bo'lib kelmoqda. Uning umumiy ko'rinishi 3-rasmda keltirilgan:



3-rasm. **Opera** brauzerining umumiy ko'rinishi.

4. **Mosaic** brauzeri 1993 yil AQSH da NCSA markazi talabasi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, eng birinchi grafik brauzerlar tarkibiga kiradi. Ushbu dastur matn, ovoz, tasvir hamda videofilmlar bilan ishlay oladi. Illinoys universiteti tomonidan Mosaic brauzeriga qo'yilgan lahhaning ko'rinishi quyidagi rasmda keltirilgan:



4-rasm. Illinoys universiteti tomonidan Mosaic brauzeriga qo'yilgan lahhaning ko'rinishi.

Hozirgi kunda ushbu dastur ham eng zamonaviy brauzerlar tarkibiga kiradi. Uni <http://www.mosaic.org/> adresdan olish mumkin (5-rasm).



5-rasm. **Mosaic** brauzerining umumiy ko'rinishi.

Yuqorida sanab o'tilgan brauzer-dasturlardan tashqari yana ko'plab brauzer-dasturlar mavjud bo'lib, to'liqroq ma'lumotni Internetdan olish mumkin.

## WEB MUHARRIRLAR, ULARNING TURLARI

Umuman olganda, oddiy "Блокнот" muharriri yordamida ham dasturlarni tahrirlashimiz mumkin, lekin bu bir necha noqulayliklarga olib keladi. Siz malakali Web-master bo'lishni istamasangiz va sayt tuzish doimiy ishingiz bo'lmasa, HTML-sahifasini yaratishda siz uchun eng yaxshi tanlov bu Word muharriridir. Web-dizaynerlar ishlashga qulay bo'lish maqsadida bir qancha web muharrirlarni yaratishgan. Ularning bajaradigan vazifasi Web-sahifalarning kodlarini tahrirlash, teglar yozish va boshqa imkoniyatlarni beradi. Ularni markerlar (teglar) deb ham atashadi.

Markerlar bazasidagi tizimlarda multimedia elementlarini birlashtirish va o'zaro ta'sirni ta'minlash uchun sahifalarni bog'lash maqsadida matnli hujjatlarda (masalan, SGML/HTML va WinHellolarda) maxsus buyruqlar – teglardan foydalaniladi. Ular, odatda, lug'at va uslubiy qo'llanmalarga o'xshash dialog tarzidagi so'rov materiallarini



tayyorlashda eng maqbul hisoblanadi va aloqalarni bog'lashda cheklangan imkoniyatga ega.

Internetning takomillashib borishi bilan bunday tizimlar global kompyuter tarmog'ining tugunlari uchun sahifa tuzishda ham keng qo'lanila boshlandi.

Markerlarga ega tizimlarga quyidagilar kiradi:

- Hot Dog (Sausage Software firmasi), Windows;
- WebAuthor (Quarterdeck firmasi), Windows;
- Front Page (Vermeer firmasi), Windows, MacOS;
- HotMetalPro (SoftQuad firmasi), Windows, MacOS, Unix;
- Adobe PageMill (Adobe firmasi), MacOS;
- Arachnophiliya, Windows va boshqalar.

HTML hujjatini tuzish uchun mo'ljallangan muharrirlar soni kundan-kunga shiddat bilan ortib bormoqda. Ular tijorat yo'li bilan yoki shartli-bepul dasturiy ta'minot, bepul dasturlar kabi tarqatiladi. Shu bilan birga dastur sifati uning narx kategoriyasi bilan tavsiflanmaydi. Albatta, mualliflik tizimlari dunyosi yuqorida aytib o'tilgan dasturlar bilan cheklanmaydi.

Bunday tizimlardan 70 tasining to'liq ro'yxati Internetda namoyish qilingan va ularning soni muntazam oshib bormoqda. Ammo o'z tanlovini amalga oshirayotgan inson uchun ularning eng yaxshilari bilan tanishib chiqish kerak. Ularning ko'plari haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni Internet orqali olishingiz mumkin.


MDH davlatlari va O'zbekistonda shaxsiy kompyuterlar asosan Windows operatsion tizimida ishlaydi. Biz shu platformada ishlaydigan dasturiy mahsulotlar bilan tanishib chiqamiz.

1. **TextPad** – web muharriri. Uning url adresi: [URL:www.textpad.com](http://www.textpad.com). Sodda web muharrir bo'lib, unda quyidagi qo'shimcha imkoniyatlar bor, ular:


- Ø HTML
- Ø Java
- Ø C
- Ø SQL
- Ø Perl

tillarining kodlarini tahrirlash imkoniyati bor.

Bunda teglar, atributlarni bir-biridan alohida rang yordamida ajratib ko'rsatiladi. Uning umumiy ko'rinishi 6-rasmda, html-kodlarini tahrirlash oynasining ko'rinishi 7-rasmda keltirilgan:




6-rasm. **TextPad** dasturining umumiy ko'rinishi.



7-rasm. **TextPad** dasturida HTML kodining ko'rinishi.

2. Yanada sifatli sayt tuzish uchun Internetdan topish mumkin bo'lgan shartli-bepul yoki bepul HTML muharrirlaridan foydalanish mumkin. Masalan, Pole Latus tomonidan ishlab chiqarilgan **Arachnophilia** – web muharriri. Uning url adresi quyidagicha: [URL:www.arachnophilia.com](http://www.arachnophilia.com). Bu muharrirning umumiy ko'rinishini 8-rasmdan ko'rish mumkin.





8-rasm. **Arachnophilia** web-muharririning oynasi.


Ushbu dastur haqida quyidagilarni aytish joiz:

Birinchidan, unda hatto pulga tarqatiladigan muharrirlar uchun katta noyoblik bo'lgan ruscha HTML-sahifasini tuzishdagi qiyinchiliklar vujudga kelmaydi.

Ikkinchidan, barcha foydalanuvchilar uchun qulaydir: yangi boshlovchidan malakali mutaxassisgacha; misol uchun, taniqli Front Page dasturida html-qoidalariga mos holda tergan matningizni o'zgartirish hususiyati bor. Archnophilia muallifi bu kamchilikka qarshi kurashish uchun oddiy usulni taklif etadi va shuning uchun bu ikki muharrirni birgalikda ishlatish cheklanishlarni olib tashlashga imkon beradi. Shu faktni yodda tutingki, shablonlar to'plamiga ega Front Pagening Front Pad nomli osonlashtirilgan versiyasi bepul tarqatiladigan Internet Explorer 4.0 paketi bilan birgalikda qo'llaniladi.


Ushbu muharrirning e'tiborga loyiq tomonidan biri shuki, unda html-kodlarini uning brauzerdagi ko'rinishi bilan yonma-yon oynada ko'rish mumkinligidir. Uni 9-rasmdan ko'rish mumkin.





9-rasm. **Arachnophilia** muharririda html-kodlari va brauzerdagi ko'rinishini yonma-yon ko'rish mumkin.


3. MS Wordning o'rnatilgan html-muharriri – **Microsoft Script Editor** (10-rasm). Unda ham teglar, atributlar, ularning qiymatlari va boshqalarni visual ko'rish hamda ishlashda qulay bo'lishi uchun har xil rangda keltiriladi. Siz yangi hujjat ochsangiz, faqat dasturning tana qismidagi kodlarni kiritish imkoniga egasiz.



10-rasm. MS Wordning o'rnatilgan html-muharriri – **Microsoft Script Editor** oynasi.


4. WYSIWYG rejimidagi **Star Office** muharriri. Uning umumiy ko'rinishi 11-rasmda tasvirlangan.





11-рasm. **Star Office** muharriri oynasining umumiy ko'rinishi.


5. WYSIWYG rejimida ishlovchi **Netscape Composer** muharri asosan Netscape Navigator brauzeri uchun xizmat qiladi. Uning umumiy ko'rinishi 12-rasmda tasvirlangan.





12-rasm. **Netscape Composer** muharririning umumiy ko'rinishi.

6. **Allaire Homesite** muharriri web-sahifalarni yaratish va tahrirlash uchun xizmat qiladi. Uning umumiy ko'rinishini 13-rasmdan ko'rish mumkin.



13-rasm. **Allaire HomeSite** muharririning oynalari.

Sanab o'tilgan muharrirlarning ko'pgina imkoniyatlari mavjud bo'lib, asosiylari teglarni, atributlarni boshqa rang bilan ajratadi, xato yozilgan teglarni aniqlaydi, bir vaqtning o'zida bir nechta sahifalarni tahrirlash imkoni va boshqalar bor.

## HTML TEGLARI

Berilgan matnni belgilab chiqilishini ta'minlovchi html tili kodlarini teglar deb ataladi. Teg bu simvollar ketma-ketligi bo'lib, boshqa dasturlash tillaridagi operatorlarga o'xshaydi. Barcha teglar « < » belgi bilan boshlanishi va « > » belgi bilan tugallanishi shart. Bu ikkala simvolni burchakli qavslar deb ataladi.

Ochiluvchi “<” qavsdan keyin tegning nomi, ya'ni tegni aniqlovchi kalit so'z keladi.

Html tilidagi har bir teg maxsus qo'llanilishga ega. Html teglarining katta yoki kichik harf bilan yozilishining farqi yo'q. Bundan tashqari teglar juft va toq teglarga bo'linadi. Juft teglar esa ochiluvchi va yopiluvchiga bo'linadi. Ochiluvchi teg qandaydir effekt hosil qiladi, yopiluvchi teg esa uning harakatini to'xtatadi. Yopiluvchi teglar har doim “/” belgi bilan boshlanadi.

Ayrim teglar bir martalik effekt hosil qiladi, shuning uchun bunday teglarda yopiluvchi teg bo'lmaydi. Agar tegda html tilida yo'q bo'lgan xato kalit so'z kiritilgan bo'lsa, u holda bu teg tashlab ketiladi. Hujjat brauzerda tasvirlanganda teglar ko'rinmaydi, lekin hujjatni tasvirlash uchun xizmat qiladi.

Html tilining teglariga misollar:

<title>            </title>,  
<html>            </html>,  
<body>            </body>,  
<b>                </b>,  
<table>            </table>,  
<head>            </head>,  
<h3>               </h3>,  
<img>, <A>, <center> va boshqalar.

Juft teglarga misollar:

<address>    </address>,



<li>                      </li> ,  
<html>                    </html> ,  
<head>                    </head> ,  
<b>                         </b> ,  
<h2>                       </h2> .

Toq teglarga misollar:

<br>, <hr>, <meta>, <basefont>, <frame>, <input>.

## HTML-HUJJATINING TUZILISHI

Html-hujjati hujjatning asosiy matni va belgilash teglaridan iborat. Belgilash teglari oddiy simvollar yig'indisidan tashkil topgan. Demak, html-hujjati tuzilishi bo'yicha oddiy matnli fayl ekan. Uni hosil qilish uchun ixtiyoriy matn muharriridan foydalanish mumkin, masalan, eng oddiy «Блокнот» dan.

1. Barcha html-hujjatlari aniq berilgan strukturaga ega. Hujjat **<HTML>** tegi bilan boshlangan bo'lishi va mos ravishda **</HTML>** tegi bilan tugallanishi shart. Bu juft teglar brauzerga html-hujjati ekanligini bildiradi.

2. Html-hujjati sarlavhalar bo'limi va hujjatning asosiy bo'limidan tashkil topgan bo'lib, ular aynan shu tarzda keltiriladi. Sarlavhalar bo'limi **<HEAD>** tegi bilan boshlanib va **</HEAD>** tegi bilan tugallanadi. Sarlavha shu teglar orasida keltirilishi kerak va hujjat haqida umumiy axborotga ega bo'lish mumkin. Xususan, bu bo'lim o'z ichida **<TITLE>** va **</TITLE>** teglarini jamlashi kerak. Bu teglar orasida hujjatning eng asosiy sarlavhasi keltiriladi. Windows muhitida ishlovchi ko'p brauzerlar bu sarlavhadan brauzer oynasining sarlavha satrini to'ldirish uchun foydalanadi.

3. Hujjatning asosiy matni hujjatning asosiy bo'limida keltiriladi. U **<BODY>** va **</BODY>** teglari orasida joylashtiriladi.

Yuqorida keltirilgan 4 ta juft teglar html-hujjatining asosiy strukturasi aniqlaydi.

**<HTML>**, **<HEAD>**, **<BODY>** teglari keltirilmasa ham, brauzer-dasturi ular qayerda bo'lishi kerakligini aniqlab oladi. **<TITLE>** tegi esa zaruriy hisoblanadi. Lekin


zamonaviy brauzerlar bu teg mavjud bo'lmasa ham, xatolikka olib kelmasdan ishlayverishi mumkin.

Shularga qaramasdan web-sahifalarni yaratish jarayonida bu teglar tushirib qoldirilmasligi maqsadga muvofiqroq, chunki boshqa kompyuter brauzerlari qanday ekanligini bilib bo'lmaydi.

Eng sodda html-hujjatiga misol:

```
<HTML>
<Head>
  <Title> Hujjatning sarlavhasi </Title>
</Head>
<Body>
  ekranga shu matn chiqadi.
</Body>
</HTML>
```

Dasturning natijasi quyidagi rasmda keltirilgan:



## TEG ATRIBUTLARI

Teg hosil qilayotgan effektga qarab ta'sir etuvchi atributlar ochiluvchi teglarda mavjud bo'lishi mumkin. Atributlar bu qo'shimcha kalit so'zlar bo'lib, tegning kalit so'zidan va bir-biridan probellar bilan ajratilib turiladi. Ayrim atributlar atribut qiymatini ko'rsatishni talab qiladi. Bu qiymat kalit so'zdan "=" belgisi bilan ajratiladi. Atributning qiymati « » belgisi ichida yozilishi lozim, lekin ayrim hollarda ularsiz ham yozilishi mumkin. Yopiluvchi teglar hech qachon atributga ega bo'lmaydi.

Atributli teglarga misollar:

<body bgcolor="#000000" text="#FFFFFF" background="rain.gif">  
<frame src="file.html">

## MATNLARNI FORMATLASH VA HUJJATNING FUNKSIONAL BO'LIMLARINI ANIQLASH

Html tili hujjatning funksional bo'limlarini aniqlash uchun mo'ljallangandir. Ko'pgina oddiy hujjatlarning asosiy funksional bo'limlari bu sarlavhalar va abzatslardir.

1. Html tili hujjatning 6 ta ichki sarlavhalarini ta'minlaydi. Ular **<h1>** va **</h1>**, **<h2>** va **</h2>**, **<h3>** va **</h3>**, **<h4>** va **</h4>**, **<h5>** va **</h5>** hamda **<h6>** va **</h6>** juft teglari bilan aniqlanadi. Kompyuter ekranida bu sarlavhalar turli xil o'lchamli shriftlarda tasvirlanadi. Masalan,

**<h1 align=center> sahifaga marhamat </h1 >**

yozilsa, matn o'rtadan chiqadi. **Align** atributining qiymati sifatida yana "right", "left" kelishi mumkin.

2. Oddiy abzatslarni belgilash uchun html tili **<p>** va **</p>** teglarni ishlatadi. Bu teg bitta bo'sh qator tashlab ketishga imkon beradi.

3. Html tilida satr boshidan tashlab ketiladigan abzatsni hosil qilish imkoniyati yo'q. Matnni bir-biridan ajratish uchun gorizontaal chiziqlar, ya'ni lineykalar ishlatiladi. Ular matnni bir qarashda bir-biridan ajratib turadi. Bu effektni hosil qilish uchun bizga **<hr>** tegi yordam beradi. U toq teg hisoblanib, uning yopiluvchi jufti yo'q.

4. Agar yangi qatorga tushirib yozish kerak bo'lsa, **<br>** toq tegi ishlatiladi. Afzalligi: qanday shriftda yozilgan bo'lsa, xuddi shunday shriftda brauzerda chiqaradi. Masalan,

**<body>**

Matnli axborot **<br>** mening sahifamda

**</body>**

5. **<Pre>** va **</Pre>** juft tegi yozilgan matnni bloknotda qanday yozgan bo'lsak, xuddi shunday o'zgartirishsiz chiqarich uchun ishlatiladi. Kamchiligi: yozilgan uzun matnlarni bo'lish xususiyatiga ega emas. Brauzerda gorizontaal surish ("prokrutka") ko'rinib qoladi, yana matnning shriftlarini olmaydi.

6. **<big> </big>** . Bu teg matnnig o'lchamini bitta o'lchamga kattalashtirish uchun xizmat qiladi.

7. **<small> </small>** . Bu teg matnni bitta o'lchamga kichiklashtirish uchun xizmat qiladi.

Matnni formatlovchi va hujjatning funksional bo'limlarini aniqlovchi teglarni ishlatishga misol:

```
<html>
  <head>
    <title> Hujjatning funksional bo'limlari </title>
  </head>
  <body>
    <h1> Asosiy sarlavha </h1>
    <h2> Sarlavhacha </h2>
    <p> bu satrlar
      ekranda bitta qatorda
      ko'rinadi.
    <p> Abzatsning yopiluvchi tegi shart emas. <p> Yangi qatorga o'tishdan
    ko'ra abzatsning ochiluvchi tegi ahamiyatliroq.
    <hr>
    Gorizontol chiziqdan keyin kelayotgan matn <br> ikkita qator bo'lib ko'rinadi.
  </body>
</html>
```

Dastur natijasi quyidagi rasmda keltirilgan:





## SHRIFT TURINI BOSHQARUVCHI TEGLAR

Html 4.0 versiyasidan boshlab hujjatni bezashni uning mundarijasidan butunlay ajratish imkoniyati paydo bo'ldi. Lekin bu konsepsiya hozirda tajribaviy xarakterga ega, chunki hamma brauzerlar ham bu ishni eplay olmaydi. Shuning uchun html tili hujjatni bezash uchun xizmat qiluvchi teglarni ishlatadi.

1. Shrift turini, o'lchamini, rangini va tagiga chizilishini taminlash uchun **<font>** va **</font>** tegi ishlatiladi. Bu juft teg ochiluvchi va yopiluvchi teglar orasida kelgan butun matnga ta'sir qiladi. Bu tegning atributlari: **COLOR** rang, **FACE** shrift turi, **SIZE** shrift o'lchami uchun aniqlangan. Masalan,

**<font size=5 color=blue face= «sans-serif»> matn formati </font>**

2. **Size** atributi shriftning o'lchamini belgilaydi. Shriftning o'lchamini aniqlash uchun 1 dan 7 gacha bo'lgan natural son ishlatiladi. Bu sonlar hech qanday o'lchov birliklariga bog'liq emas. Son qancha katta bo'lsa, matnning shrifti ham shuncha katta bo'ladi. Jimlik bo'yicha (default) "3" qiymat qabul qiladi. Bundan tashqari "+" va "-" dan bitta o'lchamga kattaroq yoki kichikroq shriftga o'tkazish uchun foydalanish mumkin. Masalan,

**<font size=5 face= «sans-serif»> matn formati </font>**

3. **Color** atributi shriftning rangini belgilaydi. U so'z bilan berilishi mumkin. Masalan,

`<font size=5 color=red face=«sans-serif»> matn formati </font>`

Yoki RGB, CMYK sistemasidagi 16 lik qiymat bilan berilishi mumkin. Masalan, #FF0000 – qizil rang uchun quyidagicha bo'ladi:

`<font size=5 color=«#FF0000» face=«sans-serif»> matn formati </font>`

4. **FACE** atributi shriftning ko'rinishini belgilaydi. Bu atributning qiymati bo'lib kompyuterda o'rnatilgan shriftlardan birortasini berish mumkin. Lekin Internetdan olingan hujjat uchun foydalanuvchining kompyuterida qanday shriftlar bor-yo'qligini oldindan aytib bera olmaymiz. Shuning uchun bu atributni ishlatmagan ma'qul.
5. Butun hujjat uchun bu parametrlarning qiymati berilmoqchi bo'lsa, **<Basefont>** tegi ishlatiladi. U xuddi yuqoridagidek atributlarni ishlatadi va shriftning ko'rinishi, rangi va o'lchami qiymatlarini jimlik bo'yicha belgilaydi.
6. Shriftning chizilishini o'zgartirish uchun maxsus teglar guruhi xizmat qiladi.

**<B>** va **</B>** juft teglari orasida keltirilgan matn quyuq ko'rinishga o'tkaziladi.

**<I>** va **</I>** juft teglari orasida keltirilgan matn kursiv ko'rinishga keltiriladi.

**<U>** va **</U>** juft teglari orasidagi matnning tagiga chizilgan bo'ladi.

**<S>** va **</S>** juft teglari orasida keltirilgan matnning ustidan chizilgan bo'ladi.

Bu teglarni ishlatganda shuni nazarda tutish lozimki, matnda kelayotgan barcha ortiqcha «probel»lar va keyingi qatorga tushirib yozishlar html-hujjatini brauzerda tasvirlaganda e'tiborga olinmaydi.

Shuni aytish kerakki, barcha teglarni ichma-ich joylashtirish mumkin. Masalan, agar berilgan matnni ham qalin, ham kursiv qilmoqchi bo'lsak, unda quyidagicha yozamiz:

`<font size=5><b><i>Mening shiorim </i></B></font>`

Shrift turini boshqarish teglarini ishlatishga misol:

`<html>`

`<Head>`

`<title> Shrift turi </title>`

`</head>`

<Body>

<Basefont size=4 face="Arial"> Bu matn jimlik bo'yicha keltirilgan nostandart shrift turini ishlatadi

<p> <font size=2 face="Times New Roman" color="blue"> Bu matn kichikroq va boshqa shriftida va rangda. </font>

<p> <b> Quyuq shrift </b> va <i> kursiv </i> matnning bo'laklarini ajratish uchun ishlatiladi.


<P> <U> tagiga chizilgan </U> matndan foydalanish maslahat berilmaydi, chunki uni ko'rsatgich-ishora bilan almashtirish mumkin.

<P> <s>Matnni o'chirish </s> ayrim hollarda qo'llaniladi.

</body>

</Html>

Dastur natijasi quyidagi rasmda keltirilgan:



## GIPERMATNLI KO'RSATGICHLAR VA YAKORLAR

Web-sahifalarning boshqa web-sahifalarga ko'rsatgichni ishlatish xususiyati world wide webning eng e'tiborga loyiq xususiyatlaridandir. HTML tilida gipermatnli ko'rsatgichlarni hosil qilish juda oson. Buning uchun <A> va </a> teglari ishlatiladi.

1. Giperishoralarni hosil qilishda **HREF** atributi ishlatiladi, uni ishlatish majburiydir. Uning qiymati bo'lib ishora ko'rsatayotgan URL adresi keladi. Ko'rsatgich matnini <a> va </a> tegi o'rtasida keltiriladi. Hujjat brauzerda tasvirlanganda matn ko'pincha tagiga chizilgan va ko'k rangda tasvirlanadi. Shu

ishoraga sichqoncha bosilsa, ko'rsatilgan adresga o'tiladi. Gipermatnli ko'rsatgichlar boshqa web-sahifalarga yoki shu web-tugundagi boshqa faylga ishora qilishlari mumkin. Bu ishoraga sichqoncha bosilsa, uning yuklanishi yoki ochilishi yuz beradi.

2. Agar ishora ko'rsatayotgan web-sahifa boshqa web-tugunda joylashgan bo'lsa, **HREF** atributning qiymati sifatida hujjatning **URL** adresini to'liq keltirish kerak, ya'ni protokolning nomi va web-tugunning adresi. Bularni tashqi ko'rsatgichlar deyiladi. Masalan,

```
<a href="http://www.microsoft.com"> microsoft firmasi adresi </a>
```

3. Agar ishora shu web-tugunning boshqa sahifasiga ko'rsatayotgan bo'lsa, u holda faqat hujjatni qidirishning nisbiy yo'lini ko'rsatish yetarli. Bu holda ichki ko'rsatgich hosil bo'ladi. Ichki ko'rsatgichlarni ishlatish qulayroq, chunki web-tugunni boshqa serverga o'tkazganda alohida hujjatlarning adresi o'zgartirilmaydi. Masalan,

```
<a href="soft.htm"> firma adresi </a>
```

4. Gipermatnli ishoralar sahifaning ichidagi aniq joyga ham ko'rsatishi mumkin, agar kerakli joyga oldindan yakor o'rnatilgan bo'lsa. Yakor ham **<A>** va **</a>** juft teglarni ishlatadi, lekin atributi sifatida **NAME** atributi ishlatiladi. Bu atributning qiymati bo'lib yakor hisoblanadi. U faqat lotincha harflardan va sonlardan tashkil topgan bo'lishi hamda o'z ichida probellari bo'lmasligi kerak.
5. O'rnatilgan yakorga ishora qilish uchun hujjatning nomidan keyin yakorning nomini ko'rsatish kerak. Uni **"#"** belgisi bilan ajratiladi.

Giperishora va yakorlarni ishlatishga misol:

```
<html>
<head>
  <title> Giper ishoralar va yakorlar </title>
</head>
<body>
  <a href="http://www.microsoft.com"> microsoft firmasi adresi </a>
  <p> Bu <a href="my.htm"> mening shaxsiy sahifam </a>
```

```
<p> Muallif bilan bog'lanish uchun  
<a href="# adres"> electron pochtaning adresi </a>  
<a name="adres"> Mening elektron pochtamning adresi </a>  
</body>  
</html>
```

## WEB-SAHIFALARDA RASMLAR

Web-sahifalarni bezashda tasvirlar yetakchi o'rinni egallaydi. Rasmlar html-hujjatidan tashqarida alohida fayllarda saqlanadi, lekin brauzer yordamida web-sahifa ichida joylashtiriladi.

1. Hujjatda rasmlarni tasvirlash uchun **<IMG>** toq tegi ishlatiladi.
2. Bu teg har doim **SRC** majburiy atributni o'zida mujassam etishi shart. Uning qiymati bo'lib tasvir faylining absolyut yoki nisbiy shaklda yozilgan **URL** adresi hisoblanadi. Hujjat yuklanganda rasm ham yuklanadi va hujjatning **<IMG>** tegi kelgan joyida tasvirlanadi. Masalan,

```
<img src= "clock.jpg">
```

3. Tasvir web-hujjatga o'lchamlarini saqlagan holda ko'chiriladi. Agar uning o'lchamlarini o'zgartirish zarurati tug'ilsa, rasmning kerakli o'lchamlarini **WIDTH** (kengligi) va **HEIGHT** (balandligi) atributlari yordamida berish mumkin. Bu atributlarning qiymati rasmning web-sahifadagi kengligi va balandligini piksellarda yoki foizlarda aniqlaydi. Masalan,

```

```

Tasvirlarni hujjatlarda keltirayotganimizda biz ehtiyot bo'lishimiz kerak. Birinchidan, web-sahifa tasvirlarni ko'rsata olmaydigan brauzer yordamida yuklanishi mumkin. Ikkinchidan, foydalanuvchilar ko'pincha rasmlarni ko'rsatmaslik rejimiga qo'yishlari mumkin (hujjatning tez yuklanishini amalga oshirish uchun). U va bu holda ham, agar rasmni ko'rish imkoniyati yo'q bo'lsa, u yerda qanday rasm bor ekanligini bildirish imkoniyatini berish mahsadga muvofiqdir. Shu maqsadda alternativ matn ishlatiladi.


4. Alternativ matn – bu mohiyati jihatidan, tasvirni u yoki bu darajada izohlab beruvchi jumladir. Agar brauzer qandaydir sababga ko'ra rasmni ko'rsatib bermasa, u



holda uning o'rniga shu alternativ matn ko'rsatiladi. Alternativ matnni ekranga chiqarish uchun **<IMG>** tegining ichida maxsus **ALT** atributining qiymati keltiriladi. Masalan,

``

Tasvirni ham, matnga o'xshab, ko'rsatgich, ishora sifatida ishlatish mumkin. Buning uchun **<IMG>** tegi **<A>** juft teglari orasida keltirilishi lozim. Tasvir-ishora ko'k ramkada tasvirlanadi. Bunday rasmga sichqoncha ko'rsatgichi olib borilsa, uning shakli ko'rsatuvchi qo'l shakliga aylanadi. Bu usul bilan web-sahifalarda o'tishning grafik tugmachalari hosil qilinadi (14-rasm):



14-rasm. O'tishning grafik tugmachasi va alternativ matn.

Tasvir-ishoraning ramkasiz bo'lishi uchun **BORDER** atributiga nol qiymat beriladi. Agar **BORDER** atributiga son berilsa, ramkaning qalinligini aniqlaydi. Masalan,

`<a href="mypicture.jpg">  </a>`

## GAP ELEMENTLARINI ANIQLASH

Keltiriladigan teglar o'z effektiga ko'ra matnni bezash uchun xizmat qiluvchi teglarga o'xshaydi. Lekin ulardan farqi shundaki, bular matnning real xususiyatlarini ifodalaydi. Bu degani matn turli xil brauzerlarda turlicha tasvirlanishi mumkin, lekin qandaydir sabablarga ko'ra shriftli effektlarni tasvirlab bo'lmagan holatda ham bu effektlarni tasvirlashning qandaydir kafolati mavjud.

Hozir keltirmoqchi bo'lgan teglar barchasi juft teglar hisoblanadi va ular orasida keltirilgan matnga ta'sir qiladi. Yopiluvchi teg har bir ochiluvchi teg uchun majburiy hisoblanadi.

1. **<cite>** tegi kelayotgan matn boshqa manbadan kelayotgan sitata ekanligiga ishora qiladi. Bunday matn odatda kursiv bilan tasvirlanadi.

2. **<html>** tili kompyuter bilan bevosita ishlaydigan misollar tomonidan yaratilganligi uchun, bir qancha guruh teglari kompyuter dasturlari matnlari va ularning natijalari bilan foydalanuvchi o'rtasidagi matnlarni tasvirlash uchun ishlatiladi. **<code>** tegi kompyuter dasturining asl matniga ishora qiladi.

**<kbd>** tegi klaviaturadan kiritilgan (kiritiladigan) matnni bezash uchun xizmat qiladi. Bu teglar bilan foydalanuvchining komandalari va klavishlarining nomlanishi belgilanadi.

**<samp>** tegi kompyuter dasturining natijalarini ko'rsatuvchi teg hisoblanadi.

**<var>** tegi dasturda keltirilgan o'zgaruvchilarni bezash uchun yoki foydalanuvchi tomonidan tanlangan kompyuter buyruqlari parametrlarini bezash uchun xizmat qiladi.

Ayrim brauzerlar **<kbd>** va **</kbd>** juft teglari orasidagi matnni quyuq shriftida keltiradi.

3. **<em>** tegi matnni belgilash uchun ishlatiladi. Ajratilgan matn ko'pincha kursiv bilan belgilanadi. Kuchliroq belgilanishni **<strong>** tegi yordamida amalga oshirish mumkin. Bu yerda faqat bezalishdan ko'ra ma'no bo'yicha ajratilish nazarda tutilgani uchun **<I>** va **<B>** teglari o'rniga mos ravishda **<EM>** va **<Strong>** teglarini ishlatish maslahat beriladi.

Gap elementlarini aniqlashga misol:

**<html>**

**<head>**

**<title>** Gap elementlarini aniqlash **</title>**

**</head>**

**<body>**

**<p>** **<cite>** 2001 yil 11 sentabrda AQSHda katta fojea yuz berdi **</cite>** - bu "Xalq so'zi" gazetasining sitatasi.


<p> <code> Dasturlar matni </code>, <kbd> klaviaturadan kiritiluvchi buyruqlar, </kbd> <samp> kompyuter dasturlarining natijalari </samp> namunalari va dasturda keltirilgan <var> o'garuvchilar </var> ko'pincha ekranda deyarli bir xil tasvirlanadi.

<p> <em> Ajratilish </em> va <strong> quyuq ajratilish </strong> kursiv va quyuq chizilishning ma'no bo'yicha ekvivalenti hisoblanadi.

</body>

</html>

Dastur natijasi quyida keltirilgan:



## RO'YXATLARNI HOSIL QILISH

Matn muharrirlari bilan ishlaganda, odatda, 2 turdagi ro'yxatlar bilan – tartiblangan (raqamlangan) va markerlangan ro'yxatlar bilan ishlanadi. Html tili esa 5 xil turdagi ro'yxatlar bilan ishlash imkoniga, bulardan ikkitasi, ya'ni menyu ro'yxati va kataloglar ro'yxati eskirgan hisoblanadi va deyarli ishlatilmaydi. Shunday qilib, hozirgi vaqtda 3 xil turdagi ro'yxatlar bilan, ya'ni tartiblangan, markerlangan va aniqlanishlar ro'yxatidan foydalanish mumkin.

1. Tartiblangan va markerlangan ro'yxatlar odatda deyarli bir xil usulda hosil qilinadi.

Agar ro'yxat tartiblangan bo'lsa, ro'yxat har doim ochiluvchi **<ol>** va yopiluvchi **</ol>** teglar orasida keltiriladi. Agar ro'yxat markerlangan bo'lsa, **<ul>** ochiluvchi va **</ul>** yopiluvchi teglar orasida keltiriladi.

Ro'yxat ichida ro'yxat elementlari joylashgan bo'ladi. Ularni **<li>** ochiluvchi va **</li>** yopiluvchi teglar orasida keltiriladi. Bu holda yopiluvchi teg keltirilmasa ham bo'ladi.

**<ol>**, **<ul>** va **<li>** teglari **TYPE** atributiga ega bo'lishi mumkin. Bu atributning qiymati ro'yxat elementlarini belgilash usulini tavsiflaydi. Tartiblangan ro'yxatlarni arab sonlari bilan, rim raqamlari bilan, lotin harflari bilan (yuqori va quyi registrda) tartiblash mumkin. Markerlangan ro'yxatlar qora doiracha shaklida marker bilan (jimlik bo'yicha), oq doiracha yoki kvadrat shaklidagi marker bilan markerlash mumkin.

Ro'yxat ichida yana ro'yxatlar kelishi mumkin. Bundan tashqari, ro'yxat elementlari o'z ichida giperishoralarni jamlashi, shuningdek, gap bo'laklarini formatlash uchun va ajratish uchun ishlatilishi mumkin. Masalan,

**<ul>**

**<li>** Tashqi

**<ol>**

**<li>** Printer

**<li>** Skaner

**<li>** Modem

**</ol>**

**<li>** Ichki

**<ol>**


**<li>** Prosessor

**<li>** Xotira

**</ol>**

**</ul>**

Bu misolning natijasi quyidagicha bo'ladi:



2. Aniqlanishlar ro'yxati **<dl>** tegi bilan boshlanib **</dl>** tegi bilan yopiladi. Bu teglar orasida keltiriladigan ro'yxatlarda tartib sonlar va markerlar ishlatilmaydi. Ro'yxat aniqlanuvchi terminlar va mos ravishdagi aniqlanishlardan tashkil topadi. Aniqlanuvchi terminlar **<dt>** tegi bilan belgilanadi, aniqlanishlar esa **<dd>** tegi bilan belgilanadi. Bu teglarning yopiluvchisi keltirilishi shart emas. Aniqlanuvchi terminlar va aniqlanishlar galma-galdan keladi, deb faraz qilinadi, lekin bunday tartibda kelishi qat'iy emas. Aniqlanishlar ekranda chap tomondan joy tashlab keltiriladi. Masalan,

**<DL>**

**<DT> <Strong> MIDI (Musical Instrument Digital Interface) </strong>**

**<DD> kompyuterga musiqa instrumentlarini ulash uchun standart**

**<DT> <strong> MPC (Multimedia PC) </strong>**

**<DD> Multimediali shaxsiy kompyuter talablarini tavsiflovchi standart**

**<DT> <strong> OLE (Object Linking and Embedding) </strong>**

**<DD> Microsoft kompaniyasining standarti**


**<DT> <strong> Plug and Play </strong>**

**<DD> Qurilma modelini va ishlab chiqaruvchi qurilma haqidagi ma'lumotlarni tavsiflovchi standart**

**</DL>**

Bu misolning natijasi quyidagicha bo'ladi:





## JADVALLARNI HOSIL QILISH TEGI

Jadval bu katta hajmdagi ma'lumotlarni qulay ko'rsatish usullaridan biridir. Html tili turli xil jadvallarni hosil qilishning boy imkoniyatlariga ega.

1. Html tilida jadvallar **<table>** tegi bilan boshlanib, **</table>** bilan yopilishi kerak. Jadval ichidagi matn jadval elementlarini (sarlavhalar, qatorlar va yacheykalar) aniqlovchi maxsus teglar ichida keltirilishi lozim.

2. **<table>** va **</table>** teglari orasida bir marta **<caption>** va **</caption>**, ya'ni jadval sarlavhasini aniqlovchi teglar kelishi mumkin. Jimlik bo'yicha jadval sarlavhasi jadval ustida bo'lishi yoki tagida kelishi mumkin.

3. So'ngra **<tr>** va **</tr>** teglari keladi. Ular jadval qatorlarini aniqlaydi. Bu tegning yopiluvchi tegi kelishi shart emas.

4. Jadvalning har bir qatori yacheykalardan iborat. Yacheykalar ustunlar va qatorlarning sarlavhalarini ifodalovchi **<th>** teglari bilan belgilanadi yoki oddiy ma'lumotlarni ifodalovchi **<td>** teglari bilan belgilanadi. Bu teglar ham juft, lekin yopiluvchisi shart emas.

5. Yacheykalar ichida hujjatning asosiy qismida keltirilishi mumkin bo'lgan ixtiyoriy ma'lumotlar va ixtiyoriy teglar keltirilishi mumkin. Masalan, jadval yacheykalari ichki jadvallarni o'zida keltirishi mumkin. Brauzerlar jadvallarning yacheykalari o'lchamlarini avtomatik tarzda belgilaydi.


6. Jadvallarning maxsus atributlaridan **border** atributini ko'rsatish mumkin. U jadval atrofidagi ramkani hamda alohida yacheykalar atrofidagi ramkani hosil qiladi. Bu atributning qiymati bo'lib, tashqi ramkaning qalinligi (piksellarda) hisoblanadi.

7. Quyidagi misolda boshqa atributlar ham keltirilgan:

```
<html>
<head>
  <title> jadval </title>
</head>
<body>
  <table width ="90%" border=10 cellpadding=2 cellspacing=10>
<caption>Jadvalning asosiy teglari </caption>
  <tr><td><b> ochiluichi teg </b>
  <td><b> yopiluvchi teg </b>
  <tr><b>tavsifi</b>
  <tr><td>table<td rowspan=2> majburiy <td> jadvalning boshlanishi va oxiri
  <tr><td> caption  <td>jadval sarlavhasining boshlanishi va oxiri
  <tr><td>tr<td rowspan=2> majburiy emas <td> jadval qatorining boshi
  <tr><td>td<td>Jadval yacheykasi boshi
</table>
</body>
</html>
```

Dasturda kelayotgan **cellpadding** atributi yacheyka ichidagi chegarani aniqlash uchun (piksellarda), **Cellspacing** atributi yacheykalar orasidagi masofani belgilash uchun (piksellarda), **Rowspan** atributi esa yacheykalarni birlashtirish uchun (yacheykalar soni) xizmat qiladi.

Dasturning natijasi quyidagicha bo'ladi:



## Jadvalni hosil qiluvchi teglarning qo'shimcha atributlari

**<Table>** **</Table>** tegining qo'shimcha atributlari:

- **Align** – jadvalni tekislash. Uning qiymati sifatida left, right, center kelishi mumkin.
- **Background** – jadval orqasiga fonli rasm qo'yish uchun.
- **Bgcolor** – fonga rang berish atributi.
- **Bordercolor** – ramkaga rang beruvchi atribut.
- **Bordercolordark** – ramka to'q qismining rangi.
- **Bordercolorlight** – ramka och qismining rangi.
- **Cols** – jadval ustunlarining soni.
- **Frame** – yacheyka chetidagi ramkalar bilan ishlash uchun qo'llaniladi. Bu atributning qiymatlari quyidagicha:
  - Ø **Above** - faqat tepadan chiziladi.
  - Ø **Below** - faqat tagidan chizish uchun.
  - Ø **Hsides** - tepadan va pastdan.
  - Ø **Lhs** - faqat chapdan.
  - Ø **Rhs** - faqat o'ngdan.
  - Ø **Box, border** - 4 tomondan.

Ø **Vsides** - vertikal chiziqlarni chizish.

- **Rules** – jadval ramkasini boshqaradi. Uning qiymatlari:

Ø **None** - ramkasiz.

Ø **Groups** - faqat guruhlararo.

Ø **Rows** - faqat jadvallarning qatorlariaro.

Ø **Cols** - faqat jadvallarning ustunlariaro.

Ø **All** - 4 tomondan chizish.

**<TD>** tegining qo'shimcha atributlari:

- **Align** – yacheykani tekislash. Uning qiymati sifatida left, right, center, justify, char kelishi mumkin.
- **Background** – yacheykaga fonli rasm qo'yish uchun.
- **BGcolor** – fonga rang beruvchi atribut.
- **Bordercolor** – yacheyka chegarasiga rang beruvchi atribut.
- **Bordercolordark** – yacheyka ramkasi to'q qismining rangi.
- **Bordercolorlight** – yacheyka ramkasi och qismining rangi.
- **Colspan** – yacheykalarni gorizontal birlashtirish.
- **Rowspan** – yacheykalarni vertikal birlashtirish.
- **Nowrap** – yacheyka ichidagi matnni keyingi qatorga tushirishni ma'n etish.
- **Valign** – yacheykalarni vertikal tekislash. Uning qiymatlari: top, center, bottom, baseline.

**<Th>** - jadval yacheykasi sarlavhasi tegining qo'shimcha atributlari:

- **Align** – atributi. Qiymatlari: left, right, center, justify, char.
- **Background** – fonli rasm qo'yish uchun.
- **Bgcolor** – rangli fon qo'yuvchi atribut.
- **Bordercolor** – chegaraga rang beruvchi atribut.
- **Bordercolordark** – yacheyka ramkasi to'q qismining rangi.
- **Bordercolorlight** – yacheyka ramkasi och qismining rangi.
- **Colspan** – yacheykalarni gorizontal birlashtirish.
- **Rowspan** – yacheykalarni vertikal birlashtirish.
- **Nowrap** – yacheyka ichidagi matnni keyingi qatorga tushirishni ma'n etish.

- **Valign** – yacheykalarni vertikal tekislash. Uning qiymatlari: top, middle, bottom, baseline.

## **JADVALNI STRUKTURALI HOSIL QILUVCHI TEGLAR**

1. **<Thead> </Thead>** - jadvalning bosh qismini, ya'ni sarlavha qismini bildiruvchi teg. Bu tegning atributlari:

- **Align** – tekislash atributi. Uning qiymatlari: left, right, center, justify, char.
- **Bgcolor** – rangli fon qo'yuvchi atribut.
- **Valign** – vertical bo'yicha tekislash. Uning qiymatlari: top, middle, bottom, baseline.

2. **<TBody> </TBody>** - jadvalning tana qismini, ya'ni asosiy qismini bildiruvchi teg. Bu tegning atributlari:

- **Align** – tekislash atributi. Uning qiymatlari: left, right, center, justify, char.
- **Bgcolor** – rangli fon qo'yuvchi atribut.
- **Valign** – vertical bo'yicha tekislash. Uning qiymatlari: top, middle, bottom, baseline.

3. **<Tfoot> </Tfoot>** - jadvalning quyi qismini aniqlovchi teg. Uning quyidagi atributlari bor:

- **Align** – tekislash atributi. Uning qiymatlari: left, right, center, justify, char.
- **Bgcolor** – rangli fon qo'yuvchi atribut.
- **Valign** – vertical bo'yicha tekislash. Uning qiymatlari: top, middle, bottom, baseline.

**<Img>** tegining qo'shimcha atributlari:

- **Align** – tekislash atributi. Uning qiymatlari: absbottom, absmiddle, right, left, middle, texttop, top, bottom, baseline.
- **Hspace** – gorizontaal joy tashlash.
- **Vspace** – vertikal joy tashlash.
- **Border** – rasm chetidagi ramkaning qalinligi.

Jadvalni strukturali hosil qilishga misol:




```

<HTML>
<HEAD>
<TITLE> Структурали жадвал</TITLE>
</HEAD>
<BODY>
<table width="50%" border=6 cellspacing=6 cellpadding=20 align=center
bordercolorlight=lime Bordercolordark=green bgcolor="#DFFFDF">
<thead bgcolor="aqua">
<tr><th colspan=3> Структурали жадвал </th> </tr>
</thead>
<tbody>
<TR>
<tr>
<td width="33%">Бу 1-ячейка</td>
<td width="33%">Бу 2-ячейка</td>
<td rowspan=3>Бу эса 3-устуннинг 3 та ячейкаси бирлаштирилди</td>
</tr>
<tr>
<td colspan=2>Бу 2-каторнинг ячейкаси</td>
</tr>
<tr>
<td>Бу 3-каторнинг 1-ячейкаси</td>
<td>Бу 3-каторнинг 2-ячейкаси</td>
</tr>
</tbody>
<tfoot bgcolor="yellow">
<tr> <td colspan=3 align=center> <small> Жадвалнинг тугалланиш кисми
</small></td> </tr>
</tfoot>
</BODY>
</HTML>

```

Dastur natijasi quyidagicha bo'ladi:



## ГРАФИК FONNI O'RNATISH

Dastlabki web-sahifalarni yaratishda, biz monoton fonni **<Body>** juft tegining **Bgcolor** atributi yordamida hosil qilgan edik. Lekin fon faqat monoton emas, balki tasvir yoki fotorasm ko'rinishida bo'lishi ham mumkin. Bu holda, boshqa hollardagidek, fon tasviri GIF, JPEG yoki NPG formatida keltirilgan bo'lishi kerak. Fonli tasvirni **<Body>** tegida ko'rsatish uchun **Background** atributidan foydalaniladi. Uning qiymati sifatida tasvir faylining nomi yoki adresi keltiriladi. Masalan,

```
<html>
<head>
<title> Fonli rasm </title>
</head>
<body    Bgcolor=blue    text=white    vlink=yellow    alink=yellow
background="BG.GIF">
</Body>
</Html>
```


Quyidagi dasturda yangi fonda matnlar va CLOUD.GIF rasmi turadi. Bu dasturda **<body>** tegida **bgcolor** va **background** atributlari birgalikda keltirilmogda. Ko'pincha

brauzer **background** atributini yuklaydi, lekin fon tasvirini yuklashning iloji bo'lmasa, **bgcolor** atributini oladi. **Bgcolor** atributi yozilishining kerakligi shundaki, matn oq rangda bo'lsa, hech qanday matn ko'rinmay qoladi.

Quyidagi dasturga e'tibor bering:

```
<HTML>
<HEAD>
<TITLE>Grafik fon</TITLE>
</HEAD>
<BODY bgcolor=blue text=red link=green vlink=red alink=yellow
background=bg.jpg>
<h1 align=center> Hush kelibsiz sahifamizga! </h1>
<center> <a href="spisok.html"> 
</a></center>
<p style="font-weight:bold; font-style:italic; font-size:150%;text-align=center"> Bu
yerda Siz
<a href="spisok.html"> bizning faoliyatimiz </a>, kompaniyamiz programma
mahsulotlari va qurilmalari haqida bilib olasiz </p>
</BODY>
</HTML>
```

Dasturning natijasini quyidagi rasmdan ko'rish mumkin:



Ko'pincha rasmning hajmi katta bo'lsa, matn chiqarilmasdan poylab turiladi, so'ng rasm to'liq yuklangach, matn yuklanadi. Rasm yuklanguncha matnni o'qib turish imkonini berish uchun **<img>** tegida **width** va **height** atributlarini berish kerak. Masalan,

```
<img src=bg.gif width=300 height=200>
```

## CSS – STILLARNING KASKAD JADVALLARI

Fonni aniqlashning yana bir usuli bu, CSS – Stillarning kaskad jadvallari tili yordamida hosil qilish. Yuqoridagi misolda **<p>** tegining **style** atributi sifatida CSS hosil qilinmoqda. Albatta, bu usulni ishlatish **<font>** tegini ishlatishdan ko'ra juda samarali. Lekin bundanda yaxshiroq yo'li ham bor. Bu **<Style>** tegini web-hujjatning sarlavha qismida berish. Bunda albatta **<style>** tegida **type="text/css"** ni keltirish kerak. U brauzerga CSS – stillarning kaskad jadvallari tilini ishlatishni bildiradi. Masalan,

```
<head>
<title> Sarlavha </title>
<style type="text/css">
</style>
</head>
```

Bundan keyingi qilinadigan ish html elementlariga stillarni o'zlashtirish. Uning umumiy ko'rinishi quydagicha bo'ladi:

**Element\_nomi{xossa : qiymati}**

Bu yerda **Element\_nomi** – bu html-tegiing nomi, figurali qavslar ichida esa element xossalari va ularning qiymatlari ro'yxati keltiradi. Masalan,

```
<style type="text/css">
P {font-weight: bold; font-style: italic; font-size: 150%; text-align: center}
</style>
```

Bu holda web-hujjatning barcha **<P>** teglari orasidagi abzatslar shu ko'rinishda bo'ladi.

Endi web-sahifamizga fon qilish uchun rasmni o'rnatish kerak. Buning uchun **<style>** tegida **body**-elementga **background-image:** xossasini o'zlashtirish kerak. Uning qiymati bo'lib tasvir faylining URL-adresi keltiriladi. Masalan,

```
<style type="text/css">  
Body {Background-image: url ("bg.jpg")}  
</style>
```

Hujjatni ochib ko'rilganda fon sifatida shu rasm brauzerda ko'rsatiladi. Agar rasmning o'lchami joriy sahifa o'lchamlaridan kichik bo'lsa, rasm ketma-ket takrorlanadi (monitorning xossasi 1024x768 va undan katta bo'lganda). Yuqoridagi rasmda fonli rasm ketma-ket takrorlangani uchun ekranda to'liq fon hosil bo'lgan. Lekin brauzerga rasmni takrorlamaslik uchun **background-repeat:** xossasining **no-repeat** qiymatini berish mumkin. Masalan,

```
<style type="text/css">  
Body {Background-image: url ("bg.jpg"); background-repeat: no-repeat}  
</style>
```

Endi bu holatda brauzer oynasida rasm bir marta ko'rsatiladi. O'ng tomon va pastki qismlar bo'sh qoladi.

**background-repeat:** xossasining yana quyidagi qiymatlari mavjud:

**repeat** – fon gorizontaal va vertical bo'yicha takrorlanadi (bu qiymat jimlik bo'yicha beriladi);

**repeat-x** – fon gorizontaal bo'yicha takrorlanadi;

**repeat-y** – fon vertical bo'yicha takrorlanadi.

Fonli tasvirning holatini **background-position:** xossasi yordamida o'zgartirish mumkin. Bu xossaning qiymati sifatida quyidagilar keltirishi mumkin:

vertical bo'yicha – **top** (tapa), **center** (markaz), **bottom** (past);

gorizontaal bo'yicha – **left** (chap), **center** (markaz), **right** (o'ng).

Har doim birinchi bo'lib vertikal holat ko'rsatilishi kerak. Masalan, **background-position: center center** yozilsa, rasmni vertical va gorizontaal bo'yicha o'rtadan tekislaydi. Internet Explorerda fonli tasvir sahifa markazida joylashadi, sahifaning o'ng va chap qismlari hamda yuqori va quyi qismlari boshqa rang bilan qoplanadi, agar

monitoring xossasi 1024x768 va undan katta bo'lsa. Netscape Communicator da bu xossa ishlamaydi, rasmning holati o'zgarmaydi.

Brauzer oynasida prokrutkani ishlatsak, fonli tasvir bilan birga matn ham suriladi. Fonli tasvirni surmasdan, uning ustida faqat matnning surilishini hohlasak, u holda **background-attachment**: xossasini **fixed** qiymati bilan o'rnatish kerak. Masalan,

```
<style type="text/css">
```

```
Body {Background-image: url ("bg.jpg"); background-repeat: no-repeat;  
background-position: center center; background-attachment: fixed}  
</style>
```

Bu holda Internet Explorer da sahifa siljitsa (prokrutkalansa), fonli tasvir surilmaydi, lekin undagi matn va boshqa ob'ektlar suriladi. Netscape Communicator da bu xossa ishlamaydi.

O'z sahifangizga fonli tasvirni yuklamoqchi bo'lsangiz, quyidagi web-saytlarga murojaat qilishingiz mumkin:

<http://www.abcgiant.com/>

<http://barrysclipart.com/>

<http://www.arttoday.com/>

## BIR NECHTA HUJJATLARNI BITTA WEB-SAHIFADA JOYLASHTIRISH (FREYMLAR)

Html tili brauzer dasturi darchasini bir nechta qismlarga bo'lish imkoniga ega va har birida alohida hujjatni tasvirlash mumkin. Bunday maydonlarni freymmlar deb ataladi.

1. Freymmlarni hosil qilish uchun alohida html-hujjatidan foydalaniladi. Uning strukturasi boshqalarnikidan farq qiladi. Bunday hujjat hujjatning asosiy bo'limi **<body>** tegini ishlatmaydi va umuman, matn ham bu yerda keltirilmaydi. Buning o'rniga freymmlarni tavsiflovchi **<frameset>** **</frameset>** teglari keltiriladi. Bunday tavsiflashda brauzer darchasidagi maydonlarning o'lchamlari va tartibi keltiriladi hamda shu maydonlarga yuklanishi lozim bo'lgan hujjatlar keltiriladi.

2. **<Frameset>** tegi majburiy atribut **cols** yoki **rows**, ya'ni darchani bo'linish usulini aniqlovchi atributlarni keltirish shart. **Cols** atributi ishlatilganda darcha



vertikal chiziqli maydonlarga ajratiladi. **Rows** atributi kelganda gorizontal chiziqli maydonlarga ajratiladi. Agar ikkalasi keltirilsa, to'r (setka) hosil bo'ladi. Bu atributlarning qiymati darcha maydonining balandligi yoki kengligini aniqlaydi. Har bir ustun yoki qator parametrlari piksel yoki foizda keltiriladi va vergul bilan ajratiladi. Agar oxirgi parametr sifatida "\*" kelsa, qolgan bo'sh joy egallanadi.

3. **<Frameset>** juft teglari orasida hosil qilingan maydonlarni belgilanishini ko'rsatuvchi qo'shimcha teglar keltiriladi. Buning uchun **<Frameset>** ichki teglarni, yoki alohida maydonlarga hujjatlarni yuklovchi toq teg - **<frame>** ni ishlatish mumkin.

4. **<Frame>** tegining majburiy atributi bo'lib, **src** atributi keltirilishi shart. U berilgan maydonga yuklanishi kerak bo'lgan hujjatni aniqlaydi. Qo'shimcha atributlar freymlar orasidagi ramkani boshqarish va ayrim boshqa xossalar uchun ishlatiladi.

Quyida freymnlarni hosil qilishga dastur keltirilgan:


```
<html>
<head>
  <title> Hujjatning qiyin strukturasi - freymlar </title>
</head>
<frameset rows =“45%, 30% ,25%”>
<frameset cols =“40% , 30%, 30%”>
<frameset rows =“50% , 50%”>
  <frame src= “doc1. Htm”>
  <frame src= “doc2. Htm”>
</frameset>
  <frame src= “doc3. Htm”>
  <frame src= “doc4. Htm”>
</frameset>
  <frameset cols= “60%, 40%”>
    <frame src= “doc5. Htm”>
    <frame src= “doc6. Htm”>
  </frameset>
  <frameset cols= “30%, 40%, 30%”>
```

```

<frame src= "doc7. Htm">
<frame src= "doc8. Htm">
<frame src= "doc9. Htm">
</frameset>
</frameset>
</html>

```

Dasturning natijasini quyidagi rasmdan ko'rishingiz mumkin:



## HTML-HUJJATINING SIFATLILIGI

Html-hujjatini yaratish jarayoni dasturlashtirish jarayoniga yaqin bo'lib, bunda har xil qiyinchiliklarga, hattoki yaratilgan hujjatni internetda o'qiy olmaslikka ham duch kelish mumkin. Bundan tashqari, foydalanuvchilarning kompyuterlari har xil bo'lganligi sababli ulardagi brauzerlar haqida oldindan bilib bo'lmaydi.

Html-hujjatini yaratish jarayonida quyidagi asosiy qoidalarga amal qilish tavsiya etiladi.

1. Hujjatning mazmuni uning tashqi ko'rinishiga nisbatan muhimroq hisoblanadi. Asosiy mazmun yaxshi yoritilmagan, lekin juda bachkana bezalgan web-sahifa unchalik bezalmagan, lekin mazmuni bo'yicha abzatslarga bo'lib, mantiqiy tartibda tog'ri keltirilgan web-sahifadan ustun turmaydi.
2. Web-sahifaning yoki web-sahifalar guruhining mundarijasi mantiqan tog'ri bog'langan bo'lishi kerak. Yaxshi ishlangan web-sahifada sahifadan boshqa sahifaga o'tish avtomatik tugmachalar - "oldinga" va "orqaga" tugmachalarni ishlatmasdan amalga oshirilishi kerak.
3. Html-hujjati keng auditoriya ommasiga mo'ljallangan bo'lishi uchun eng yangi yangiliklardan bir qadam orqada yurish kerak.
4. Web-sayt tuzishni boshlovchilar ko'pincha bezash elementlaridan ortiqcha foydalanganliklari sababli ko'p xatoliklarga yo'l qo'yadilar. Bunday sahifa eng yaxshi holatda bachkana bo'lib tuyuladi. Eng yomon holatda esa nostandart rangli sxemali kompyuterlarda va kerakli shriftlari o'rnatilmagan kompyuterlarda hujjatni umuman o'qib bo'lmaydi.
5. Grafik tasvirlar va multimediya fayllarini ko'p ishlatish tavsiya etilmaydi. Chunki bu juda katta hajm talab qilganligi sababli, yuklash uchun uzoq vaqt talab qiladi.
6. Agar insonning shaxsiy fantaziyasi web-sayt yaratish uchun kamlik qilsa, u holda www xizmatidan yordamchi sifatida foydalanish mumkin. Bunday yondoshishning mohiyati shundaki, nimalar qilingan va qanday qilinganligini shu web-sahifaning dastlabki matnidan ko'rish mumkin.

## **HTML-HUJJATIDA IZOHLAR**

Dasturlashtirish tillarida izohlardan foydalanish imkoniyati ko'zda tutilgan. Izohlar bu matnli qatorlar bo'lib, ular dasturning qismi emas, balki dasturni tushuntirish uchun xizmat qiladi. Html tili ham bu imkoniyatga ega.

Html tilida izohlar maxsus **<!--** ko'rinishdagi teg yordamida boshlanadi. Shu tegdan keyin keladigan ixtiyoriy matn izoh sifatida qabul qilinadi va hujjatni brauzerda tasvirlaganda, bu izohlar ekranda ko'rsatilmaydi. Izohni **-->** simvollar bilan yakunlanadi. Izoh sifatida ">" simvoldan tashqari barcha simvollarni ishlatish mumkin va shunga ko'ra ular ichida teglar bo'lmasligi lozim.

Izohga misol:

```
<body>
<p> Bu abzats bo'lib, <!-- bu yozuv izohga misol bo'la oladi. -->
<p> u oddiy abzatsdir.
</body>
```

Html tilida izohlardan foydalanish uchun teg ham mavjud bo'lib, **<Comment>** **</Comment>** juft tegi shu maqsadda ishlatiladi. Quyidagi dasturda izohlardan foydalanilgan:

```
<html>
<head>
<title> Hujjatda izohlar </title>
</head>
<body>
<p> <a href="tada.wav"> musiqa eshitish uchun shu yerni bosing </a>
<p> sahifada ijro etiluvchi videorolik <!--bu yerda videorolik ijro etiladi -->
<Embed SRC="clock.avi" align=middle width="200" height="200"
alt="videorolik">
<comment> Bu sahifa izohlarni ishlatishga oddiy misol </comment>
</body>
</html>
```

## Ayrim qo'shimcha atributlar

1. Tilga doir qo'shimcha atributlardan biri bu **lang** atributidir. **lang** atributi element ichida qaysi til ekanligini bildiradi. Uning qiymatlari:

**ar** – arab  
**dl** – nemis

**hi** – hind  
**it** – italyan

|                                  |                      |
|----------------------------------|----------------------|
| <b>ek</b> – grek                 | <b>ja</b> – yapon    |
| <b>en</b> – ingliz               | <b>nl</b> – golland  |
| <b>en-us</b> – amerikacha ingliz | <b>pt</b> – portugal |
| <b>es</b> – ispan                | <b>ru</b> – rus      |
| <b>fr</b> – fransuz              | <b>zh</b> – xitoy    |
| <b>he</b> – ivrit                |                      |

Ayrim tillarda matnning yo'nalishi o'ngdan chapga qarab bo'ladi. Buni **dir** atributi yordamida o'rnatish mumkin. Uning qiymatlari quyidagilar:

**LTR** – chapdan o'ngga

**RTL** – o'ngdan chapga

Ayrim brauzerlar **dir** atributini o'rniga **bdo** atributini ishlatadi.

2. **type** atributi ishorada keltirilgan hujjatning turini aniqlaydi. Uning qiymatlari quyidagilar:

**text/plain** – oddiy matn.

**text/css** – stillarning kaskad jadvallari.

**text/html** – html hujjati.

**application/postscript** – postscript formatidagi hujjat.

**image/gif, image/jpg, image/png** – gif, jpg, png formatidagi tasvir.

**video/mpeg** – videorolik.

**application/java** – applet.

**text/javascript** – javascriptdagi stsenariy.

**text/vbscript** – Visual Basic Scriptdagi stsenariy.

3. **charset** atributi sahifada kelayotgan matnning kodirovkasini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Masalan, **charset="ISO-8859-1"**

4. **title** atributi suzib chiquvchi matnni chiqarish uchun ishlatiladi.

## HTML TILIDA MULTIMEDIA OB'YEKTLARI

Multimedaning keng tarqalishi WWW xizmatining mavjud bo'lgan davriga tog'ri kelgani uchun html tili web-sahifalarda multimedia ob'yektlarining paydo bo'lishiga darhol ko'nika olmadi. Audio va video fayllari hozirgacha tashqi ob'ekt sifatida qaralmoqda. Ular o'rnatilgan va yordamchi ilovalar yordamida ijro etiladi.

Video va audio multimedia fayllari turli xil formatlarda bo'lishi mumkin. Oddiy formatdagi fayllar uni ijro etilishi mumkin bo'lishidan oldin butun faylni yuklashni talab qiladi.

Zamonaviy oqimli formatdagilar tovush va video tasvirni real vaqtda qiymatlarni yuklash jarayonida ijro etilish imkoniga ega.

Internetda oqimli formatda radiotranslyatsiyalar uzatiladi. Masalan, Rossiyada bunday formatda "Kumush yomg'ir" radiostansiyasi ([www.silver.ru](http://www.silver.ru)) xabar beradi.

Web-sahifaga multimedia ob'ektini qo'shishning eng oddiy usuli bu giperishora tegi **<A>** ni ishlatishdir. Bunday ko'rsatgichni hosil qilish juda qulay.


Ayrim hollarda tovushli yoki multimediali faylni bevosita web-sahifaga qo'shish kerak bo'ladi. Masalan, bu faylni avtomatik ravishda ijro etish uchun. Hozirgi paytda bu maqsad uchun **<EMBED>** tegini ishlatish o'rinli, lekin u HTML-tilining standartiga kirmaydi. Bu tegni eng zamonaviy brauzerlar Internet Explorer va Netscape Navigator taniydi, lekin multimedia faylini ijro etish uchun o'rnatilgan ilovasi borligi bilan aniqlaydi.

**<Embed>** tegi toq teg bo'lib, uning majburiy atributi **SRC** hisoblanadi. Uning qiymati bo'lib, mos faylning absolyut yoki nisbiy adresi hisoblanadi. Yana **width** va **height** atributlarni ham ishlatish mumkin. Bunda multimedia ob'ektini ijro etish uchun ekranning tog'ri to'rtburchak qismi keltiriladi. Masalan,

```
<html>
<head>
<title> Hujjatda multimedia </title>
</head>
<body>
<p> <a href="tada.wav"> Musiqa eshitish uchun shu yerni bosing </a>
<p> Sahifada ijro etiluvchi videorolik
<Embed SRC="clock.avi" align=middle width="200" height="200"
alt="videorolik">
</body>
</html>
```

Dasturning natijasi quyidagicha bo'ladi:





## WEB-SAHIFALARDA TOVUSHDAN FOYDALANISH

Oldingi mavzularda biz web-sahifani CSS – jadval turlari va grafik elementlar yordamida bezashni ko'rib chiqdik. Lekin yana bitta bezash komponenti ham mavjud bo'lib, bu tovushdir. Ayrim saytlarda bu bezash komponenti asosiy komponent sifatida keladi. Masalan, musiqali arxivlar, musiqa mavzusiga bag'ishlangan saytlar va boshqalar.

Tovushli fayllarning juda ko'plab formatlari mavjud bo'lib, ularning hammasini ham web-sahifalarda ishlatish mumkin emas.

Musiqali ob'ektni sahifaga o'rnatish usullari bilan tanishib chiqamiz. Albatta, musiqali ob'ekt sahifada o'rnatilgach, foydalanuvchi uni eshitishi mumkin, qachonki uning kompyuterida tovush kartasi o'rnatilgan bo'lsa. Hozirgi kompyuterlarning barchasida tovush kartasi o'rnatilgan.

## FONLI MUSIQA

Fonli musiqani eshitish uchun **<bgsound>** tegidan foydalanish yaxshi samara beradi. Lekin bu teg faqat Internet Explorer va Mosaic brauzerlarida ishlaydi. Agar

**<Bgsound src="beeth.mid" loop="-1" Balance="-5000" Volume="0">**

deb yozilsa, web-sahifada fonli musiqa sifatida "Beeth.mid" fayli ijro etiladi.

**Loop** atributi musiqali fragment tugagach, nima qilish kerakligini aniqlaydi.

**Loop=-1** yoki **loop=«infinite»** shuni bildiradiki, foydalanuvchi web-sahifadan chiqib ketmaguncha cheksiz davom etaveradi. Bu atributning qiymati sifatida necha marta qaytarilishini ko'rsatuvchi musbat son kelishi mumkin, masalan, **loop=5**.

Internet Explorer 4.0 va undan keyingilar uchun yana ikkita atributdan **Volume** va **Balance** dan foydalanish mumkin.

**Volume** atributi yordamida tovushni pasaytirish mumkin. Uning qiymati jimlik bo'yicha « 0 » ga teng deb olinadi, bu esa maksimal balandlikni bildiradi. Nazariy olganda **volume= «-10000»** bo'lishi mumkin, lekin amaliyotda esa **volume=«-1000»** dan past bo'lishining farqi yo'q, chunki inson uni eshitmaydi.

**Balance** atributi panorama bo'yicha tovushning siljishini belgilaydi. Uning qiymati -10000 dan +10000 gacha bo'lishi mumkin. Jimlik bo'yicha « 0 » ga teng. Bu ko'p hollarda optimal echim bo'lib, tovushni markaz bo'yicha joylashtiradi.

**<Bgsound>** tegining yana bir atributi mavjud bo'lib, u faqat Mosaic brauzerida ishlaydi. Bu atribut **Delay** bo'lib, fonli musiqa faylini ijro etilishidan oldin pauzani aniqlaydi. Bu atributni ishlatish faqatgina kichik audiokliplar uchun ma'noga ega, chunki oddiy musiqali fayl uzoq yuklanganligi sababli, qandaydir vaqt oralig'ida ijro etiladi. Ayniqsa, faylning formati .wave yoki .aiff bo'lsa.

## TOVUSH KO'RINISHDAGI OB'EKTLAR

Web-sahifaga tovushli ob'ektni o'rnatishning yana boshqa usuli yuqoridagiga nisbatan universal teg **<OBJECT>** ni qo'llashdir. Umuman olganda, bu teg faqat tovushli ob'ektlarni o'rnatish uchun emas, balki boshqalar uchun ham ishlatilishi mumkin.

U o'z vaqtida Internet Explorerda Active X/COM ob'ektlarini o'rnatish uchun paydo bo'lgan.

Ayrim hollarda web-sahifaga bu teg yordamida tovushli ob'ekt o'rnatilgan bo'lsa, brauzer bu kengaytmali faylni ijro etuvchi vositalar yo'qligi haqida xabar berishi mumkin. Bunday holda xudda shu kengaytmali faylni shu kompyuterning o'zida ijro etilishi insonni ajablantirishi mumkin. Lekin bu yerda hamma gap brauzerga

o'rnatilgan vositaga bog'liq bo'lgani uchun, brauzerda ko'rish modulini qayta o'rnatish kerak bo'ladi (Masalan, Internetdan yozib olish mumkin).

Musiqali ob'ektni web-sahifaga joylashtirish uchun

`<OBJECT DATA="Sounds/Mydolly.mp3" TYPE="audio/wav">`

deb yozish mumkin.

Ko'rib turganimizdek, **DATA** atributi musiqa manbai faylni aniqlaydi. **TYPE** atributi esa uning kengaytmasini (formatini) aniqlaydi.

Agar **<BGSOUND>** tegini ishlatganda musiqa fon sifatida ishlatilsa, **<OBJECT>** tegidan foydalanilganda ob'ektni ekranda kuzatish mumkin. Odatda, o'rnatilgan ijro etiluvchi ob'yekt ko'rinishida «Pusk», «Stop» va boshqa boshqarish elementlari bilan ekranda kuzatish mumkin. Shuning uchun **<OBJECT>** tegi uchun quyidagi atributlarni ishlatish mumkin:

- **ALIGN** atributi (**top, middle, bottom, left, right** qiymatlari bo'lishi mumkin)
- **WIDTH**
- **HEIGHT**
- **HSPACE**
- **VSPACE**
- **VSEMAP**

Bu barcha atributlarni biz **<IMG>** tegi bo'yicha taniymiz.

**<OBJECT>** tegi yordamida web-sahifaga grafik ob'ektlar va videokliplar o'rnatish ham mumkin. Bunda formatlar ro'yhati ham ancha kengayadi (masalan, rasmlarni .TIFF va .WMF formatlarda ko'rish mumkin), agar brauzerga mos ko'rish moduli o'rnatilgan bo'lsa.

Bu tegning orasida yana **<OBJECT>** teglarini keltirish mumkin. Masalan,

`<OBJECT DATA="Myclip.mpg" TYPE="video/x-mpeg">`

`<OBJECT DATA="Mysound.aiff" TYPE="audio/x-aiff">`

`<OBJECT DATA="Mypicture1.tiff" TYPE="image/TIFF">`

`<OBJECT DATA="Mypicture2.gif" TYPE="image/gif">`

*Bu yerda videoklip bo'lishi lozim...*

`</OBJECT>`

</OBJECT>

</OBJECT>

</OBJECT>

Bu misolda brauzer dastlab .MPEG formatdagi faylli videoklipni ijro etishga harakat qiladi. Agar bunga erishsa, uning ichidagi boshqa barcha teglar qaralmasdan o'tib ketiladi. Aks holda brauzer .AIFF formatdagi musiqali faylni ijro etishga harakat qiladi. Agar brauzer bunga ham ijro etuvchi modulni topa olmasa, .TIFF formatdagi rasmni tasvirlashga harakat qiladi. Agar buni ham uddalay olmasa, .GIF formatdagi rasmni tasvirlashga harakat qiladi. Agar shuni ham bajara olmasa, bu ob'ektning o'rnida "Bu yerda videoklip bo'lishi kerak..." degan yozuv chiqariladi.

Yana bir holat. **<OBJECT>** tegida **STANDBY** atributini o'rnatish mumkin. Uning qiymati matnaviy qator bo'lib, ob'ekt to'liq yuklanmagunga qadar bu qator ekranda chiqib turadi. Masalan,

**<OBJECT DATA="sound.wav" TYPE="audio/wav" STANDBY="Tovushli  
ob'ektni o'rnatyapman, bir oz kuting...">**

## TOVUSHLI GIPERISHORALAR

Html hujjatida tovushdan foydalanishning yana bir usuli bu musiqali faylni oddiy giperishora sifatida hosil qilish mumkin. Masalan,

**.... Endi <A HREF="mymusic.mid"> musiqa </A> tinglang!!!**

Bu holda giperishoraga bosilgach, foydalanuvchi berilgan fayldan musiqani tinglashi mumkin. Ayrim hollarda brauzer so'rashi mumkin, hoziroq faylni ochaymi? ya'ni ijro etaymi?, deb, yoki qattiq diskda saqlab qo'yaymi?, deb. Ayrim hollarda esa brauzer bu faylni ochish uchun ilovani so'rashi mumkin.

## TOVUSHLI FAYLLAR FORMATLARI

Internetda qanday musiqali fayllardan foydalanishimiz mumkin? Birinchidan, **.WAVE**, **.AU**, **.AIFF**. Bu formatlar faqat tovushni saqlashi mumkin. Ayrim hollarda ular siqilgan tovush qiymatlarini saqlashi mumkin. Lekin standart formatda bezalgan bo'ladi. Ularni ijro etish uchun maxsus modullar o'rnatilgan bo'lishi kerak.

<OBJECT> tegida **.WAVE** formati **audio/wav**, **AU** - **audio/basic**, **AIFF** - **audio/x aiff** ko'rinishida bo'ladi.

Bulardan tashqari **Netscape Packed Audio** tovushli format mavjud bo'lib, bunday fayllar kengaytmasi **.la** yoki **.lma** ga ega bo'ladi. U – **audio/nsaudio** ko'rinishida belgilanadi.

Tovushli fayllar ko'pincha katta hajm talab qiladi (siqilgan holatda ham). Shuning uchun **.MIDI** formatdagi musiqali fayllardan ham foydalaniladi. MIDI-fayllar xususan tovushli axborotga ega emas. U faqat oktavalararo ikki sekund ichida bosilgan klavisha komandalari to'plamidan iborat bo'ladi. Bu komandalar foydalanuvchining tovush kartasiga o'rnatilgan sintezator yordamida ijro etiladi (yoki tashqi modul yordamida, agar bor bo'lsa).

Shuning uchun tovushning ijro etilish sifati unda mavjud bo'lgan qurilmaga bog'liq.

1 min uzunlikdagi **MIDI**-fayl 10÷30 Kbayt joy egallaydi (notalar soni va tempiga ko'ra).

1 min uzunlikdagi tovushli fayl esa 10 Mbayt atrofida va siqilgan holda 300 Kb÷2 Mbaytgacha joy olishi mumkin.

28.800 bit/c tezlikdagi modem orqali bog'langanda, MIDI ni 3÷12 sekundda, tovushli faylni esa 1 min 40 sekunddan 12-14 minutgacha vaqtda yuklash mumkin (agar siqilgan bo'lsa, aks holda 1 soatlar atrofida).

## **SAYTDA TASVIR XARITA (NAVIGATSION XARITA)NI HOSIL QILISH**

Faraz qilaylik, ATARI-800 nomli tarixiy kompyuterni tavsiflash uchun sayt qilishimiz kerak bo'lsin. Uning monitori, diskovodi va kompyuterning o'zini tavsiflovchi fayllar mavjud bo'lsin, ya'ni **monitor.html**, **computer.html** va **diskovod.html**. Bizning vazifamiz saytning titul sahifasini yaratish va unga kompyuter tasvirini joylashdir.

Shunday qilishimiz lozimki, sichqoncha monitor tasviriga olib borilganda monitor haqidagi sahifaga, diskovod tasviriga olib borilganda diskovod haqidagi sahifaga va kompyuterga olib borilganda kompyuter haqidagi sahifaga o'tsin. Buning uchun biz

butun rasmni uch bo'lakka bo'lib, har biriga giperishoralar qilishimiz mumkin edi, lekin bunda rasmdagi kompozitsiyaning butunligi saqlanmaydi. Nima qilish kerak? Bitta rasmni bo'laklarga bo'lmasdan bir necha giperishora o'rnatish imkoniyati bor ekan. Bunday tasvirni grafik ishoralar xaritasi (**imagemap**) deb ataladi. Grafik ishoralar xaritasini hosil qilish mayda ish, lekin natija juda samarali.

Buning uchun:

Dastlab rasmni web-sahifaga oddiy usul bilan, ya'ni **<img>** tegi yordamida o'rnatamiz:

```

```

So'ngra bu tegda **USEMAP** nomli atributni o'rnatish kerak. Uning qiymati sifatida grafik ishoralar xaritasining nomi # belgisi bilan keltiriladi. Agar hali xarita hosil qilinmagan bo'lsa, bizning holatimizda unga ixtiyoriy nom berish mumkin:

```

```

Endi ishoralar xaritasining o'zini hosil qilishimiz kerak. Umuman olganda bu xarita ixtiyoriy joyda joylashishi mumkin, masalan, boshqa faylda (u holda **usemap** atributida xarita nomidan tashqari, faylning nomini ham ko'rsatish kerak, masalan, "**<mapfile.html #mymap>**"). Bizning misolda shu faylning oxirida joylashtiramiz.

Grafik ishoralar xaritasi **<map>** tegi bilan boshlanib, **</map>** tegi bilan yopiladi. Bu tegda albatta **NAME** atributini keltirish shart, uning qiymati bo'lib, **<img>** tegida ishora qilingan xaritaning nomi keltiriladi (**USEMAP** dagi), ya'ni

```
<map NAME="compmap">.
```

**<map>** va **</map>** orasida xaritaning asosiy qismi keltirilishi shart. U bir nechta **<AREA>** teglaridan iborat bo'lib, ularning har biri rasmning faol maydonini aniqlaydi. Sichqonchani faol maydonchalarga bosganda giperishora bo'yicha o'tish bajariladi, rasmning boshqa qismlari esa oddiy rasmdan farq qilmaydi. Bizning misolda 3 ta shunday faol maydonchani, ya'ni monitor tasviri, kompyuter tasviri va diskovod tasvirini aniqlab olishimiz kerak.



Faol maydonlar to'g'ri to'rtburchak, aylana yoki ko'pburchak shaklida bo'lishi mumkin. Bu **SHAPE** atributini (**<AREA>** toq tegidagi) o'rnatish bilan belgilanadi. Uning qiymatlari:

**SHAPE="rect"** – to'g'ri to'rtburchak

**SHAPE="circle"** – aylana

**SHAPE="poly"** – ko'pburchak

Endi eng yoqimsiz ish boshlanadi, ya'ni har bir faol maydonning koordinatalarini aniqlash kerak va ularni **COORDS** atributining qiymati sifatida yozish kerak. Agar faol maydon to'g'ri to'rtburchak bo'lsa, u holda chap yuqori burchagi va o'ng pastki burchagi koordinatalarini ko'rsatish kerak. Rasmdagi nuqtaning joylashish o'rnini uning gorizontal va vertikal koordinatalari yordamida aniqlanadi. Rasmning eng yuqori chap nuqtasining koordinatasi (0,0) bo'ladi. Gorizontal qiymati oshgani sari nuqta o'ng tomonda, vertikal qiymati oshgani sari nuqta pastroqda bo'ladi. Masalan, agar rasmning o'lchami 400x300 bo'lsa va biz to'g'ri to'rtburchak shaklida faol maydonni yuqori chap burchagini va rasmning kengligini (eni) va balandligining yarmini aniqlamoqchi bo'lsak, unda

**<AREA SHAPE="rect" COORDS="0,0,200,150">**

deb yozishimiz kerak.

Bu yerda **COORDS** atributidagi (0,0) koordinata rasmning eng yuqori chap nuqtasini, (200,150) koordinata esa 400x300 tasvirning markazini bildiradi.

Agar faol maydon aylana shaklida bo'lsa, u holda aylana markazi va uning radiusini keltirish yetarli, ya'ni:

**<AREA SHAPE="circle" COORDS="200,150,40">**

Bu yozuv bizning gipotetik tasvirdagi markazda joylashgan aylana shaklidagi faol maydonni aniqlaydi. Uning radiusi 40 ta nuqtaga teng bo'ladi.

Va nihoyat, eng qiyin va eng ko'p uchraydigan holat bu ko'pburchak faol maydondir. Bu yerda ko'pburchakning barcha burchaklari koordinatalarini ketma-ket ko'rsatish kerak bo'ladi.

Agar biz teng yonli uchburchakni ajratib olmoqchi bo'lsak, uning eng yuqori cho'qqisi rasmning eng tepa qatorining o'rtasida bo'lib, uchburchakning tag tomoni rasmning qoq o'rta chizig'ining uzunligi bo'yicha bo'lsa:

<AREA SHAPE="poly" COORDS="0,150,400,150,200,0">

Bu yerda 6 ta son 3 ta nuqtani aniqlayapti - uchburchakning 3 ta burchagini. Bu yerda nuqtalarning kelish tartibini o'zgartirib yozish mumkin edi, masalan, "400,150,0,150,200,0" ko'rinishida, lekin burchaklar soni ko'p bo'lsa, burchaklar tartibini saqlash shart, masalan,

<AREA SHAPE="poly" COORDS="0,0,200,0,200,150,200,75,0,150">

va <AREA SHAPE="poly" COORDS="0,0,200,0,100,75,200,150,0,150">

yo'zuvlar har xil natija beradi.

Ushbu texnologiyaning qo'rqqituvchi momenti bu har bir nuqtaning koordinatasini aniqlash hisoblanadi, ko'zda chamalab topish to'g'ri natija bermaydi, shuning uchun qaysidir grafik muharrirga kirib, koordinatalarni aniqlab, keyin HTML-hujjatga kiritish kerak. Ayrim HTML muharrirlarning oxirgi versiyalarida (masalan, Allaire Homesite da) grafik ishoralar xaritasida koordinatani o'rnatish uchun qo'shimcha vositalar bor.

Lekin **SHAPE** va **COORDS** atributlari bu hali hamma atributlar emas. **<AREA>** tegida eng asosiy atribut bu **HREF** ni o'rnatishdir, ya'ni foydalanuvchi sichqonchani faol maydonda bosganida qayerga giperishoraning o'tishini bildiradi. U oddiy **<A>** tegidagidek ishlaydi.

Undan tashqari **ALT** atributini aniqlash ham foydali bo'ladi. Uning qiymati bo'lib alternativ matn keladi, u sichqoncha faol maydonga borganda "suzib chiqadi".

Shunday qilib, bizning misolda 3 ta faol maydonlarni ko'pburchak shaklida ajratib olamiz:

<HTML>

<HEAD>

<TITLE> Kompyuterning tavsifi </TITLE>

</HEAD>

<BODY bgcolor="#FFA940" text="#1A1A1A"> link="#0000A0"

vlink="#0000A0" alink="#0000A0">

<DIV align=center><H1>ATARI-800</H1></DIV>

<DIV align=center><BIG> Bu yerda tarixiy ATARI-800 kompyuterining tasviri keltirilgan. U quyidagi ko'rinishga ega: </BIG></DIV>

<DIV align=center><IMG src="images\computer.gif" width="45" height="310" border="0" alt="ATARI-800" usemap="#compmap">

</DIV>

<DIV align=center> Har bir qism bo'yicha axborot olmoqchi bo'lsangiz, uning tasviriga sichqonchani bosing </DIV>

```

</BODY>
<MAP name="compmap">
  <AREA alt="Monitor"
shape="poly"coords="95,41,289,40,289,180,212,180,211,164,
  86,168,86,54" href="monitor.html">
  <AREA alt="ATARI-800 kompyuter" shape="poly"
coords="7,,253,57,255,62,265,
  156,265,158,259,205,259,213,247,210,178,208,168,30,168,6,245"
href="computer.html">
  <AREA alt="Diskovod" shape="poly" coords="293,197,345,154,438,168,
  441,196,437,204,400,265,294,252,292,226" href="diskovod.html">
</MAP>
</BODY>

```

## SAYTGA KIRISH HISOBLAGICHI, QIDIRUV VA BOSHQA KOMPONENTLARNI O'RNATISH

Sizning saytingiz qanchalik mashhur va taniqli ekanini bilish uchun kirish hisoblagichi (**hit counter**) o'rnatiladi. Kirish hisoblagichi bu qandaydir ichki hisoblagich bo'lib, uning qiymati sahifada ko'rinish turadi va har safar sahifa brauzerga yuklanganda oshib boradi.


Front Page dasturida kirish hisoblagichini o'rnatish uchun kursorni sahifaning kerakli joyiga o'rnatiladi va **Insert\Component\Hit counter** komandasi bajariladi. Ekranda **hit counter properties** dialogi hosil bo'ladi.

Bu dialogdan hisoblagichning ko'rinishini **Counter Style** o'rnatgichni o'rnatish yordamida tanlanadi. Agar **Custom picture** (Произвольный рисунок) o'rnatgichi tanlansa, u holda shaxsiy faylingizdagi hisoblagich raqamlari tasvirini ko'rsatish mumkin. Rasm bir xil joylashgan 0÷9 raqamlarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak. **Hit counter properties** (Свойства счётчика посещений) dialogida hisoblagichning dastlabki qiymatini (**Reset counter**) va tasvirlanuvchi razryadlar sonini (**Fixed number of digits**) qo'shimcha o'rnatish mumkin.

**OK** tugmasini bosing. Sahifaga kirish hisoblagichi o'rnatiladi.


Tahrirlash rejimida kirish hisoblagichi shartli ravishda tasvirlanadi. Hisoblagichning ishlashini faqat sahifa Web-serverdan yuklanganda ko'rish mumkin. Undan tashqari yana serverda qo'shimcha Front Page Server Extensions kengaytmasi dasturi o'rnatilgan bo'lishi kerak.

Sahifaga murojaatlar sonini hisoblashdan tashqari saytga kirishni yetarlicha tahlil qilish kerak bo'lsa, tayyor sistemalar xizmatlaridan statistikani yig'ish uchun foydalanish mumkin. Buning uchun registratsiyadan o'tish va axborot olish uchun o'z sahifangizda maxsus hisoblagichlar o'rnatish kerak. Statistika yig'ish uchun eng mashhur hisoblagichlar bu **SpyLog** va **Rambler**. SpyLog – bu sizning saytingiz statistikasini yig'ish va tahlil qilish uchun servislar to'plami. Ular sahifaga kiruvchilar haqida to'liq axborotni beradi. Bunday axborotlar yordamida saytning samaradorligi haqida xulosalar qilish, uning rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash, eskirgan va kirilmayotgan bo'limlarni aniqlash va boshqalarni bilish mumkin. Hisoblagichni (SpyLog ning) ishlashi uchun har bir sahifaga shu sahifaga murojaat haqidagi axborotni maxsus serverga uzatuvchi kichik kod fragmenti o'rnatiladi. U yerda axborot qayta ishlanadi va ma'lumotlar bazasi (MB)ga yoziladi. Yig'ilgan axborotga ko'ra turli xil statistik hisobotlar: auditoriya hajmi, kirish dinamikasi, kun davomidagi kirishning taqsimlanishi, kirish bashorotlari, ko'rilgan sahifalar, kirish va chiqish nuqtalari, kiruvchilarning saytda ushlanish vaqti, kiruvchilarning geografik holati, IP adreslari, tillari, brauzerlar, operatsion tizimlar, qaysi kalit so'zlar va sahifalarni qaysi qidiruv mashinalari yordamida topishgan va olish mumkin, sayt sahifasiga kirishning asosiy xabarlarini ko'rsatuvchi logotip joylashtirilishi mumkin. To'liq axborotni, masalan, [www.SpyLog.ru](http://www.SpyLog.ru) saytidan olish mumkin (15-rasm).




15-рasm. [SpyLog.ru](http://dir.spylog.ru) saytidan bir ko'rinish.

**Rambler's Top100** hisoblagichi ham SpyLog funksiyalarini bajaradi. U ham yirik saytlarni mashhurligiga ko'ra solishtirma baholash imkoniyatini beradi va shu saytlarga reklama qo'yuvchilarning sonini oshiradi. Statistikasi yig'ish uchun sahifaga maxsus kod fragmenti va kichik logotip joylashtiriladi:




Rambler hisoblagichi haqidagi to'liq ma'lumotni Top100.rambler.ru saytidan olish mumkin (16-rasm).



16-rasm. [Top100.rambler.ru](http://top100.rambler.ru) saytidan bir ko'rinish.

Ulardan tashqari yana **Toplist** ([Toplist.ru](http://Toplist.ru)) va **1000Stars** ([1000Stars.ru](http://1000Stars.ru)) reytinglari bor (17-rasm).





17-rasm. [Toplist.ru](http://toplist.ru) saytidan bir ko'rinish.

Yirik saytlarda odatda alohida qidiruv formalı sahifa joylashgan. Foydalanuvchilar aniqlangan mavzu bo'yicha kerakli ma'lumotni tez va oson topishlari mumkin. Qidiruv formasida foydalanuvchi kalit so'z yoki jumlanı kiritadi va shu so'zlar topilgan sahifalar ro'yxatini oladi.


Front Page programmasida qidiruv formasini hosil qilish va qo'llashni osonlashtiruvchi vositalar mavjud, lekin mexanizmni ishlatishni ta'minlash uchun sayt joylashtirilgan serverda qo'shimcha dasturiy kengaytma – **Front Page Server Extensions** o'rnatilgan bo'lishi kerak.

Sahifaga qidiruv formasini joylashtirish uchun menyudan **Insert\Components\Search Form** komandasini berish kerak. Ekranda **Search Form Properties (Свойства поисковой формы)** dialogi paydo bo'ladi. Bu dialogda

kiritish formasi kiritish maydoni uchun sarlavhani, qidirish maydoni kengligi, qidiruv formasi tugmalari uchun matnni berish mumkin.

**Search Results (Результаты поиска)** ni tanlash kerak. Axborotni qidirishda Front Page ko'rsatilgan kalit so'z yoki jumlani to'liq mos kelishini hamda qisman mos kelishini ham tekshiradi. Agar **Display Search (Выводить коэффициент совпадения)** bayroqchasi o'rnatilsa, u holda qidiruv natijasiga so'zlarning mos kelishi darajasi aniq sonli koeffitsient ko'rinishida qo'shiladi. Undan tashqari qidiruv natijasiga yana sahifa yoki hujjatning yangilanish sanasi (**Display file date**) va o'lchami (**Display file size**)ni qo'shish mumkin.

**OK** tugmachasi bosiladi. **Search Form Properties (Свойства поисковой формы)** dialogi yopiladi va sahifaga qidiruv formasi joylashadi:



Искать текст:

Sayt tarkibiga qidiruv formali sahifani qo'shish uchun yana **Search page** tayyor shablonidan foydalanish mumkin.

Saytni ishlab chiqish davrida sahifalar saqlab qo'yilganda Front Page avtomatik ravishda sahifadagi yangi so'zlarning hammasini va ularning joylashishi o'rni haqidagi axborotni maxsus indekslangan ro'yxatga joylashtiradi, so'ngra saytga kiruvchi serverga qidiruv formasida ko'rsatilgan so'zni uzatganda Front Page bu so'zni ro'yxatdan qidiradi, sahifalarda uchragan so'zlarni shakllaydi va brauzerda tasvirlash uchun jo'natadi. Front Page indeksli ro'yxatga yangi so'zlarni qo'shish barobarida eskilarini, ya'ni sahifani tahrirlash davomida o'chirilib ketgan so'zlarni ro'yxatdan olib tashlaydi. Shuning uchun saytni nashrga berishdan oldin, ya'ni uni Web-serverda joylashtirishdan oldin keraksiz so'zlardan tozalash zarur bo'ladi. Buni **Tools\Recalculate Hyperlinks (Сервис\Обновить гиперссылки)** komandasini berish orqali amalga oshirish mumkin. U asosan ingliz tili uchun mo'ljallangan, boshqa tillar uchun qo'shimcha dasturiy servislardan, masalan, **Microsoft Internet Information Servises (IIS)** paketi tarkibiga kiruvchi **Microsoft Index Server** programmasidan foydalanish mumkin.

## SAYTDA MA'LUMOTLAR BAZASIDAGI AXBOROTNI TASVIRLASH

Agar MB uncha katta bo'lmasa va uning barcha ob'ektlari umumiy faylda joylashgan bo'lsa, masalan, Access, Excel, Dbase, Paradox dagidek, u holda MB ni faylga import qilish va fayl darajasida bog'lanishni tashkil etish mumkin. Buning uchun **File\Import** komandasi beriladi, yoki MB faylini buferga nusxasini olib sayt papkasiga ko'chirish kerak. MS Access Mbni Front Page ga import qilganda, Front Page avtomatik ravishda bog'lanish hosil qiladi va faylni alohida **FPDB** papkasiga joylashtiradi. Bu papka brauzerda ko'rinishdan himoyalangan bo'ladi. Yirik MB bilan ishlaganda, masalan, MS SQL Server yoki Oracle da **System DSN (System Data Service Name)** sistemasi orqali **ODBC** – birgalikdagi MB uchun bog'lanish hosil qilish mumkin, yoki Mbning ajratilgan serveri bilan tarmoq (**network connection**) hosil qilish mumkin. Bunda Web-serverda kerakli psevdonimlar (**DSN**) hosil qilishni tashkil etish kerak, Mbning ajratilgan serveri esa Web-server uchun ochiq bo'lishi kerak.

Front Page programmasining tarkibiga **Database Result Wizard** maxsus masteri (MB natijalari masteri) kiradi. U Mbga kerakli so'rovni hosil qilishga va so'rov natijalarini sayt sahifalarida tasvirlanish usullarining aniqligiga imkon beradi. Master avval bor bo'lgan bog'lanishni ishlatishi yoki yangi hosil qilishi mumkin. Undan tashqari MS Access formatidagi demonstratsion MB – **Nothuring Traders** bilan tayyor bog'lanishni ishlatish mumkin. (U Front Page ni installyatsiya qilishda o'rnatiladi). Shu demonstratsion MB misolida biz masterning ishini ko'rib chiqamiz:

Sahifani tahrirlash rejimida MB dagi axborotni o'rnatmoqchi bo'lgan pozitsiyaga kursor o'rnatiladi.

Menyudan **Insert\Database\Results** komandasi bosiladi. Ekranda **Database Results Wizard** dialogi hosil bo'ladi. **Use a sample database connection** (demonstratsion MB bilan bog'lanish xossasi) tanlanadi. **Use an existing database connection** (MB bilan mavjud bo'lgan bog'lanishni hosil qilish) bilan oldin hosil qilingan bog'lanishni tanlash mumkin. **Use a new database connection** (MB bilan yangi bog'lanishni hosil qilish)da esa yangi bog'lanishni hosil qilish mumkin.

**Next** tugmachasini bosing. Master bog'lanishni faollashtiradi va MB ob'ektlari, jadvallari va ko'rinishlari haqidagi axborotni yuklaydi, so'ngra ekranda keyingi master dialogi hosil bo'ladi. **Record Source** (axborotlar montaji) ochiluvchi ro'yxati tanlanganda jadvalni (**table**) yoki ko'rinishini tanlash kerak. Agar siz SQL tili bilan tanish bo'lsangiz, u holda Mbga shaxsiy so'rovni hosil qilishingiz mumkin. Buning uchun **Custom query** tanlagichini o'rnatib, **Edit** tugmachasini bosish kerak. Shaxsiy so'rovlar yordamida darhol bir necha jadvallar yoki ko'rinishlardan axborot olish mumkin. Master so'rovning sintaktik to'g'riligini tekshiradi.

**Record Source** o'rnatilgan holda ochiluvchi ro'yxatdan bitta jadvalni, masalan, **Employers** ni tanlang.

**Next** tugmachasini bosing. Master tanlangan jadval maydonlari haqidagi axborotni yuklaydi va ekranda kichkina dialog hosil qiladi.

**Edit list** tugmasini tanlang, ekranda **Displayed fields** dialogi hosil bo'ladi.

**Displayed fields** ro'yxatida keraksiz maydonlarni tanlang va ularni **Available fields** ro'yxatiga **Remote** tugmasi yordamida o'tkazing.

**OK** tugmasini bosing.

**More options** tugmasini bosing. **More options** ning dialogi hosil bo'ladi. **Criteria** tugmasini bosib alohida dialogda qiymatlarni yoki qiymatlar diapozonini ko'rsatish mumkin va shu usulda keraksiz yozuvlarni filtrlash mumkin (<, >, mantiqiy "ha", "yoki" yordamida). Undan tashqari shu yerda qidiruv formasiga kiritish uchun maydonlar aniqlanadi. Master keyin sahifada avtomatik ravishda qidiruv formasini hosil qilish mumkin. Bu esa saytga tashrif buyuruvchiga MB jadvalidan kerakli yozuvlarni mustaqil tanlash imkonini beradi. Agar qidiruv maydonlari berilgan bo'lsa, **Defaults** tugmasi yordamida chaqirilgan dialogda, qidiruv formasi uchun ularga bag'ishlangan qiymatlarni berish mumkin. **Ordering** tugmasi yordamida chaqirilgan dialog tasvirlanadigan yozuvlarni saralash uchun maydonlarni tanlash imkonini beradi. **More options** dialogida yana so'rov natijalari yozuvlar sonini cheklovchi **Limit number of returned records** va agar yozuv topilmasa **Message to display if no records are returned** xabarlar bor.

**Next** tugmachasini bosing. Ekranda masterning keyingi dialogi hosil bo'ladi. Unda axborotlarning ko'rinish formatlari aniqlanadi. Ochiluvchi ro'yxatda axborotning 3 xil ko'rinishini tanlash mumkin:

**Table – one record per row** (jadvalli) – bunda olingan axborot jadval ko'rinishida tasvirlanadi, unda har bir qator MB dagi bitta yozuvga to'g'ri keladi. Jimlik bo'yicha jadval ustunlari sarlavhalari bilan maydon nomlari keladi. Ularni **Include leader row with column labels** va **Use table border** ga bayroqcha o'rnatish orqali o'chirish mumkin.

**List – one field per item** (ro'yxat ko'rinishida) – ro'yxatning har bir elementi o'z tarkibida maydon nomi va uning qiymatini jamlaydi. **List options** da markerlangan yoki raqamlangan ro'yxat turini aniqlash mumkin.

**Drop-Down List – one record per item** (ochiluvchi ro'yxat) – ro'yxat bo'lib, unda barcha yozuvlardan bitta maydon qiymati tasvirlanadi. Bunday ochiluvchi ro'yxatni mavjud Mbdan maydon formasi qiymatini tanlash uchun formaga joylashtirishingiz mumkin. Undan tashqari, tanlashda, masalan, hamkasbning ismini, formaning berilgan elementi shu ismni o'zini emas, balki adresi yoki telefonini ko'rsatishi mumkin. Tasvirlanuvchi maydon **Display values from this field** ochiluvchi ro'yxatida, qaytariluvchi ro'yxat esa **Submit values from this field** ochiluvchi ro'yxatida ko'rsatiladi.

Masalan, axborot tasvirlanishining jadval variantini tanlang va **Next** tugmasini bosing. Ekranda masterning oxirgi dialogi hosil bo'ladi. Bu yerda axborotlar uzluksiz blok (**Display all records together**) tasvirlanadimi yoki guruhlar bo'yicha (**Split record Data groups**) berilgan yozuvlar miqdori bo'yicha bo'lib chiqiladimi, tanlanadi. Agar **Add search from** (qidiruv formasini qo'shish) o'rnatilsa, sahifaga saytga tashrif buyuruvchining axborotni mustaqil ravishda qidirish va tanlash imkonini beruvchi qidiruv formasi joylashadi. Bu bayroqcha faqat 3-qadamda qidiruv maydonlari tanlangan bo'lsa, ishlaydi.

**Finish** tugmasini bosing. Sahifaga axborotlarni tasvirlash uchun jadval joylashadi. Unda ustun sarlavhalarni o'zgartirish mumkin. Ko'pincha sahifa fayli kengaytmasini **.ASP (Active Server Page)** formatiga o'girish kerak bo'ladi (**Save as...**). Saytingiz Web-serverga joylashtirilmaguncha MB ishini tekshirish mumkin emas. Agar

siz sahifani ko'rish uchun brauzerni yuklasangiz, faqat ustunlar sarlavhalarini ko'rish mumkin.

Yuqoridagilardan tashqari Front Page yana parametrli giperishoralarni hosil qilishi mumkin. U ishlatilsa, alohida MB ga murojaat tashkil etiladi. Masalan, MB dan hamkasblar ro'yxati sahifaga joylashtirilgan bo'lsa, hamkasbning ismini giperishoraga aylantirish mumkin. Bu giperishoraga murojaat bo'lganda, tanlangan inson haqida qo'shimcha ma'lumotlarni ko'rish mumkin bo'ladi. Undan tashqari yana saytga tashrif buyuruvchilarning o'zlariga Mbga axborotni kiritish imkoniyatini tashkil etish mumkin.

## **SAYT SAHIFALARIDA O'ZGARUVCHILAR (VARIABLES)NI HOSIL QILISH TEXNOLOGIYASI**

Sayt sahifalarida bir xil mazmundagi axborot, matn, kompaniya nomi, adresi, telefoni, loyiha yoki tovar nomi va boshqa ko'p joyda uchrashi mumkin. Bunday axborotni bir joyda keltirib, unga har xil joylardan ishora qilish qulayroq. Buning uchun Front Page da o'zgaruvchilar (variables) ishlatiladi. Siz o'zgaruvchini keltirib, unga qandaydir qatorni o'zlashtirib, keyin undan matnda foydalanishingiz mumkin. Agar o'zgaruvchining qiymati o'zgarsa, masalan, firma telefoni, u holda uning qiymatini bir marta to'g'irlash etarli bo'ladi. (butun saytning barcha sahifalari bo'yicha qidirish va almashtirish tashkil etiladi).

O'zgaruvchini hosil qilish oson. Buning uchun:

1. **Tools\Web settings (Сервис\Настройка сайта)** komandasi bosiladi. Ekranda **Web settings** dialogi hosil bo'ladi.
2. **Parameters** bo'limi tanlanadi. Bu bo'limda sayt uchun aniqlangan o'zgaruvchilar ro'yxati keltirilgan.
3. Yangi o'zgaruvchini hosil qilish uchun **Add** tugmasi bosiladi. Ekranda **Add Name and Value (добавить имя и значение)** dialogi hosil bo'ladi.
4. **Name** maydoniga o'zgaruvchining nomini kiriting, masalan, **projectName**.
5. **Value** maydoniga o'zgaruvchining qiymatini kiriting, masalan, **"Операция"**. **OK** tugmasini bosing. Yangi o'zgaruvchi ro'yxatga kirdi.
6. **Web Settings** dialogini yopish uchun **OK** tugmasini bosing.



7. Kursorni o'zgaruvchining matni o'rnatilishi kerak bo'lgan joyga o'rnatish va **Insert\Components\Substitution** (**Вставка\Компонент\Подстановка**) komandasi beriladi. Ekranda **Substitution Properties** (**Свойства подстановки**) dialogi hosil bo'ladi.
8. **Substitute with** ochiluvchi ro'yxatida yuqorida hosil qilingan o'zgaruvchini (**projectName**) tanlang va **OK** tugmasini bosing. O'zgaruvchining qiymati sahifaga qo'shiladi.

Saytni yaratishda siz va master aniqlagan o'zgaruvchilardan tashqari, oldindan aniqlangan tizimli o'zgaruvchilar mavjud bo'lib, ularni **Substitution Properties** (**Свойства подстановки**) dialogidan tanlash mumkin. Bu saytdagi sahifani yaratuvchi (**Author**), sahifaga oxirgi o'zgarishlarni kiritgan inson (**Modified by**), sahifa tavsifi (**Description**) va sahifaning joriy adresi (**Page URL**). Sahifa tavsifi **Comments** maydonida aniqlanadi. U sahifa fayli xossalari dialogining **Summary** (**сводная информация**) bo'limida joylashgan. Bu dialogni saytning fayl va sahifalarini ko'rish rejimida fayl nomiga sichqonchani o'ng tugmachasini bosgan holda va kontekst menyudan **Properties** komandasini tanlagan holda chaqirish mumkin. O'zgaruvchining matnini oddiy matn singari formatlash mumkin.

## **SAHIFAGA O'ZGARTIRISHLARNING OXIRGI YANGILANGAN SANASINI KIRITISH**

Ko'pincha, sahifada o'zgartirishlarning oxirgi yangilangan sanasi keltiriladi, qanchalik axborot yangiligini bilish uchun. Buning uchun:

1. Sahifaga yangilanish sanasini o'rnatish uchun, o'rnatilmoqchi bo'lgan joyga kursor olib borib joylashtiriladi va **Insert\Date and Time** komandasi tanlanadi. Ekranda **Date and Time Properties** dialogi hosil bo'ladi. **Date format** ochiluvchi ro'yxatida sananing yozilish variantlaridan biri tanlanadi. **Time format** ochiluvchi ro'yxatida vaqtni yozilish variantlaridan biri tanlanadi.
2. **OK** tugmasi bosilib, sahifaga yangilanish sanasi joylashtiriladi.

Endi Front Page avtomatik ravishda sahifada o'zgartirishlar saqlangan sanasini yangilab turadi.

## SAYTNING MUNDARIJASINI TUZISH TEXNOLOGIYASI

Front Page navigatsiya tarkibini tashkillashtirish imkonini beradi, ya'ni saytning mantiqiy tuzilishiga ko'ra sahifalararo mumkin bo'lgan o'tish diagrammasini. Odatda, bunday tuzilish kitobga o'xshash ierarxik ko'rinishga ega: asosiy bo'lim, bo'limchalar va hokazo. Shuning uchun navigatsiya tuzilishi asosida saytning mundarijasini tuzish mumkin. U saytga kiruvchilarga mavjud bo'limlar sarlavhalarini tez ko'rib chiqish va ularning biriga o'tish imkonini beradi. Mundarija asosan alohida sahifaga joylashadi.

Saytning mundarijasini sahifaga qo'yish uchun, tahrirlash rejimida **Insert\Component\Table of Contents** komandasi beriladi. Ekranda **Table of Contents Properties** dialogi hosil bo'ladi. **Page URL for starting point of Table** (Адрес страницы для начальной точки оглавления) maydonida mundarija tuzilishining boshlanish sahifasi ko'rsatiladi. Jimlik bo'yicha bosh sahifadan boshlash taklif qilinadi (butun sayt uchun). Agar ma'lum bir bo'lim uchun mundarija tuzish kerak bo'lsa, boshlang'ich sahifa sifatida shu bo'limning asosiy sahifasini ko'rsatish kerak. **Heading font size** ochiluvchi ro'yxati mundarijaning boshlang'ich sahifasi uchun sarlavha stilining tartibini aniqlaydi. Agar qiymati nol bo'lsa, boshlang'ich sahifa mundarija tarkibiga kiritilmaydi. **Show each page only once** bayroqchasi har bir sahifa mundarijaga faqat bir marta kiritilishini ko'rsatadi. Agar bu bayroqcha o'rnatilmasa, sahifa mundarijaga bir necha marta kiritilishi mumkin va unga saytning turli joylaridan ishora qilish mumkin. **Show pages with no incoming hyperlinks** bayroqchasi saytning bosh sahifasidan saytning ayrim sahifalariga giperishora o'rnatilmagan bo'lsa, ushbu sahifalar mundarijaga kiritilishi yoki kiritilmasligini bildiradi. **Recompute table of contents when any other page is edited** bayroqchasi o'rnatilsa, u holda mundarija avtomatik ravishda sayt sahifalariga o'zgartirish kiritilganda yangilanadi.

**OK** tugmachasi bosiladi. Sahifaga mundarija joylashadi. Tahrirlash rejimida mundarija shartli ravishda ko'rsatiladi. Uni ko'rish uchun, brauzerni ishga tushirish kerak va sahifani ishga tushirish kerak. Agar siz avtomatik mundarija qo'yishdan bosh tortsangiz, unda mundarijani saytni web-serverga yuklashdan oldin qo'lda to'g'irlab chiqish kerak bo'ladi. Buning uchun mundarijali sahifani ochish kerak va **File\Save** komandasi bilan saqlash kerak.

## SAYT AXBOROTINING QIDIRUV MASHINALARIDA O'RNATILISH TEXNOLOGIYASI

Siz internetda ishlaganingizda Yandex, Rambler, Altavista kabi qidiruv tizimlariga yoki Aport, List.ru, Yahoo kabi internet kataloglariga murojaat qilasiz. Shuning uchun sizning saytingiz haqidagi ma'lumotlar shunday tizimlarga o'rnatilsa, sayt mavzusi bilan qiziqqan insonlar uni oson topadi.

Sizning saytingizning axboroti qidiruv mashinalarida o'rnatilishi uchun:

1. Internet-katalog yoki qidiruv mashinalarida o'rnatilishi uchun siz o'zingizning saytingizning tavsifi va ma'lumotlarini kiritasiz.
2. Qidiruv mashinasining maxsus robot-dasturi siz ko'rsatgan adres bo'yicha murojaat qiladi va saytingizning barcha sahifalarini ko'rib chiqadi: barcha sahifalardagi uchragan so'zlarni tahlil qiladi, har bir hujjatning nomini o'zi uchun belgilab qo'yadi, uning tavsifini , sarlavhalarni (matnda uchragan). So'ngra ishoralar bo'yicha boshqa hujjatlarga o'tadi. Bu jarayonni **indekslash** deyiladi. Robot-dastur sizning saytingizga bir oz vaqt o'tib qaytadi, masalan, bir oydan so'ng uni boshqatdan indekslash uchun. Agar siz internet-katalogda registratsiya qilgan bo'lsangiz, tekshirish funksiyasini katalogning xizmatchisi, ya'ni inson bajaradi. U saytning ko'rsatkich adresi bo'yicha mavjudligini va siz bergan tavsifga mos kelishini tekshiradi.
3. Siz registratsiya qilgan axborot qidiruv mashinasida yoki Internet-katalogida paydo bo'ladi. Qidiruv qatoriga saytingizda uchraydigan so'zlarni kiritsangiz, qidirish natijasi sifatida mos sahifalaringizga bo'ladigan ishoralarni ko'rsatishingiz mumkin. Qidiruv mashinasining mashhurligiga ko'ra ma'lumotlarni kiritishidan boshlab axborotning ko'rinishiga qadar bir kundan ikki haftagacha vaqt sarflanishi mumkin.

Quyidagi mashhur qidiruv sistemalariga albatta saytingizni registratsiya qiling:

Yandex – [www.Yandex.ru](http://www.Yandex.ru)

Aport – [www.aport.ru](http://www.aport.ru)

Rambler – [www.rambler.ru](http://www.rambler.ru)

Altavista – [www.altavista.com](http://www.altavista.com)

Kataloglardan: [www.list.ru](http://www.list.ru), [www.data.ru](http://www.data.ru), [www.Yahoo.com](http://www.Yahoo.com)

Hozir ko'pgina qidiruv tizimlari o'z ichiga katalogni ham jamlagan.

## QIDIRUV TIZIMIDA REGISTRATSIYA QILISHGA TAYYORGARLIK

Foydalanuvchi so'rov berganda, qidiruv tizimlari, odatda, shu so'rovni qanoatlantiruvchi yuzlab sahifalarni topadi, lekin ekranda 10-20 sarlavhadan ko'pini chiqaravermaydi. Foydalanuvchi esa eng yuqoridagi 3-4 ta sarlavha bilan cheklanib, qolganini ko'rmaydi. Sizning saytingiz eng yuqorida bo'lishiga intilish kerak. Quyida shunday holatlar keltirilgan:

1. Agar kalit so'zlar sahifada bir necha marta takrorlansa;
2. Agar so'zlar sahifa sarlavhalarida keltirilgan bo'lsa, ya'ni `<title>`, `<h1>`, `<h2>` belgilari orasida;
3. Hujjatning boshlanishiga yaqin joylashgan so'zlar;
4. Qisqa hujjatda joylashgan so'zlar;
5. `<meta>` va `<alt>` xizmatchi teglar orasida kelgan so'zlar.

Qidiruv tizimlarida registratsiya qilishdan oldin saytning barcha sahifalarini yana bir bora qarab chiqish kerak: sarlavhalar to'g'ri qo'yilganmi va matndagi so'zlar necha marotaba takrorlangan (kalit so'zlar bo'lishi uchun). Yana sahifa sarlavhalarini ham yaxshilab tekshirib chiqish kerak. Ular sahifa mazmuniga mos kelishi kerak. U `<title>` tegi orasida keltiriladi.

`<alt>` tegi. Bu teg tasvir yoki fotografik rasm o'rniga matnni chiqishini ta'minlaydi. Uning bor-yo'qligini tekshirish uchun, brauzeringizdagi barcha rasmlarni ko'rsatishni o'chirib qo'yib, sayt sahifalarini ko'rib chiqish kerak, buning uchun:

1. **Сервис\Свойства обозревателя** komandasi beriladi.
2. Ochilgan dialogdan **Дополнительно** bo'limi, undan **Мультимедиа** bo'limi tanlanib, **Отображать рисунки** dan bayroqcha olib tashlanadi.
3. **Применить** va **ОК** bosiladi.

Endi saytning barcha sahifalari ko'rib chiqiladi. Undan noto'g'ri yozuvli alternativ matnlarni eslab qolinadi va tuzatiladi.

Yana bir teg bu `<meta>` tegidir.

1. **<meta>** tegi **keywords** parametri bilan. Unda kalit so'zlar va so'z birikmalarini (sahifada eng ko'p uchraydigan) sanab o'tish kerak. Masalan, ta'mirlash ishlariga bag'ishlangan sayt uchun **<meta>** tegi quyidagicha bo'lishi mumkin:

**<meta name="keywords" content="ta'mirlash, qurilish materiallarini tanlash, oboylash, kafellash, gipsokarton miqdorining hisob-kitobi">**

Bu misolda faqat alohida kalit so'zlar emas, balki so'z birikmalari ham keltirilgan. Agar foydalanuvchi qidiruv tizimiga so'rov sifatida shu so'z birikmalaridan birini kiritsa, u holda bu sahifa mos keluvchi sahifalar ro'yxatining yuqori qismidan joy oladi. Siz kalit so'zlar sifatida ko'p so'zlarni olishingiz mumkin, lekin ularning maksimal uzunligi 200 ta simvoldan oshmasligi kerak.

2. **<meta>** tegi **description** parametri bilan. Bu teg mos sahifalar ro'yxatini tasvirlaganda, qidiruv mashinasi qanday matnning tasvirlanishini (sahifa sarlavhasi bilan) bildiradi. Agar bu teg keltirilmasa, u holda sahifani tavsiflash uchun shu sahifadan 100 ta simvolni ekranga chiqaradi. Yuqoridagi misol uchun:

**<meta name="description" content="Ta'mirlash bo'yicha qurilish materiallarini tanlash uchun maslahatlar, kafel, oboy, gipsokarton va boshqa qurilish materiallari miqdorining hisob-kitobi bo'yicha misollar">**

Barcha maxsus teglarni tahrirlash yoki hosil qilish mumkin. Buning uchun:


1. **Писк** tugmasini bosing. Windowsning asosiy menyusi ochiladi.
2. Undan **Программы\Стандартные\Word Pad** komandasi beriladi.
3. **Файл\Открыть** komandasi beriladi.
4. Faylingiz saqlangan papkani tanlang va html faylini oching.
5. Bu faylda **<title>** va **<meta>** teglarini yozing yoki o'zgartiring.
6. **<alt>** teglarini tuzating.
7. Faylni saqlang.
8. Xuddi shu ishlarni barcha web-sahifalar uchun qo'llang.

Ana endi saytni qidiruv tizimida registratsiya qilish mumkin.

## **SAYTNI QIDIRUV TIZIMIDA REGISTRATSIYA QILISH. (Yandeks qidiruv tizimi misolida)**

Saytni qidiruv tizimida registratsiya qilish juda oson. Bu ishni Yandex misolida ko'ramiz.


1. Brauzerning adres qatorida [www.Yandex.ru](http://www.Yandex.ru) adresini tering. Natijada quyidagi ko'rinishdagi sayt ochiladi:



18-rasm. [www.Yandex.ru](http://www.Yandex.ru) sayti bosh sahifasining ko'rinishi.


2. Ushbu sahifadan [Все службы...](http://www.yandex.ru/all_services.html) giperishorasini bosing yoki [http://www.yandex.ru/all\\_services.html](http://www.yandex.ru/all_services.html) adresini tering. Natijada quyidagi ko'rinishdagi sahifaga o'tiladi:





19-rasm. [http://www.yandex.ru/all\\_services.html](http://www.yandex.ru/all_services.html) sahifasining ko'rinishidan lavha.

3. Sahifada **Добавить сайт** degan ishorani toping va bosing. Boshqa tizimlarda bu yozuvning o'rniga **Добавить ресурс**, **Добавить URL**, **Add URL**, **Submit a site** kabi ishoralar bo'lishi mumkin. Ishoraga bosilganidan so'ng, qidiruv tizimiga sayt qo'shilishi uchun sahifa ochiladi.



4. Registratsiya qilish qoidasini o'qib chiqing va registratsiya formasini to'ldiring.
5. **Добавить URL** tugmasini bosing. Bir necha soniyadan so'ng registratsiya qilinganlik haqida xabarli sahifa ekranga chiqadi. Sahifaning tagida saytingizning asosiy sahifasining indekslanganligi haqida qo'shimcha axborot mavjud.
6. **Yandex** tizimi, shuningdek sahifangiz haqidagi axborotni katalogga darhol qo'shish imkoniyatini taklif etadi. Axborotni katalogga qo'shish uchun yangi registratsiya shakli maydonlarini to'ldiring.
7. **Добавить** tugmasini bosing va bir necha soniyalardan so'ng resursingiz katalogga gid tekshiruvidan so'ng qo'shilishi haqida xabar chiqadi.
8. Jadvalga qidiruv tizimining nomi, adresi va registratsiya sanasini o'zingiz uchun yozib oling.

Shu bilan qidiruv tizimida registratsiya qilishni tugatish mumkin. Odatda, qidiruv tizimiga saytingizning bosh sahifasi adresini qo'shib qo'yish yetarli. Bunda qidiruv roboti saytni boshqa sahifalari bo'yicha ko'rib chiqadi va ularni indekslaydi. Lekin, bosh sahifani tez indekslab, boshqa sahifalarni indekslash uchun, bir necha haftadan so'ng qaytishi mumkin. Shuning uchun saytingizning alohida sahifalarini ham indekslash muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida sanab o'tilgan qidiruv tizimlarida registratsiya qilish qo'lda bajariladi. Boshqa qidiruv tizimlarida bu ishni maxsus registratsiya xizmatlariga topshirish mumkin. Ular quyidagilar:

1. **TAU** ([www.design.ru/free/addurl/](http://www.design.ru/free/addurl/)) – saytni barcha asosiy Rossiya va chet el qidiruv tizimlarida registratsiya qiladi.
2. **ADDMe!** ([www.addme.com](http://www.addme.com)) – chet el qidiruv tizimlarida registratsiya qiladi.
3. **@Submit** ([www.uswebsites.com/submit/](http://www.uswebsites.com/submit/)) – asosiy chet el qidiruv tizimlarida registratsiya qiladi.

Biroz vaqt o'tgandan so'ng robot saytingizni to'g'ri indekslab chiqqanligini tekshirish ma'noga ega. Buning uchun web-saytingizning birorta sahifasida uchraydigan qandaydir jumlaning qidiruv tizimiga so'rov sifatida kiriting. Sizning saytingiz sahifasi topilgan sahifalar ro'yxatining yuqori qismida joylashgan bo'lishi kerak. Agar bunday bo'lmasa, sizning saytingiz indekslanmagan yoki noto'g'ri indekslangan bo'ladi.

Agar saytingiz qidiruv tizimida 2 haftadan ortiq indekslanmasa, u holda shu tizimda qaytadan registratsiya qilish o'rinli bo'ladi.

## HTML 4.0 bo'yicha qisqacha ma'lumotnoma

Ushbu ma'lumotnomada HTML 4.0 tilining ko'p elementlari haqida ma'lumot berilgan. Har bir berilgan teg uchun qisqacha tavsifi hamda unda ishlatiladigan asosiy atributlar va ulardan foydalanish uchun misollar keltirilgan. Atributlarning qiymatlari sifatida kalit so'zlar, masalan, **left**, yoki to'rtburchak qavs ichidagi qiymatning toifasini bildiruvchi so'zlar, masalan, **width=[Son]** bo'lishi mumkin. Bu holda HTML kodida **[son]** o'rniga aniq qiymat, masalan, **width=100** ni kiritish kerak bo'ladi. Atributlarning alternativ (muqobil) variantlari vertikal chiziq “ | ” bilan, masalan, **align=left | center | right** berilgan.

Ma'lumotnomadan foydalanish qulay bo'lishi uchun quyida teglar guruhlariga ajratilib berilmoqda.

### Abzatslar, tekislash va bo'luvchilar

```
<blockquote>...</blockquote>
<br>
<center>...</center>
<div>...</div>
<hr>
<p>...</p>
<pre>...</pre>
<q>...</q>
```

### Sarlavhalar

```
<h1>...</h1>, <h2>...</h2>, <h3>...</h3>, <h4>...</h4>, <h5>...</h5>, <h6>...</h6>
```

### Navigatsiya xaritasi

```
<area>
<map>...</map>
```

### Hujjatning umumiy tuzilishi

```
<body>...</body>
<head>...</head>
<html>...</html>
<meta>
<span>...</span>
<style>...</style>
<title>...</title>
```

### Ro'yxatlar

<dd>...</dd>  
<dir>...</dir>  
<dl>...</dl>  
<dt>...</dt>  
<li>...</li>  
<menu>...</menu>  
<ol>...</ol>  
<ul>...</ul>

## Stsenariylar va apletlar

<applet>...</applet>  
<noscript>...</noscript>  
<object>...</object>  
<param>  
<script>...</script>

## Ishoralar (ko'rsatkichlar) va tasvirlarni o'rnatish

<a>...</a>  
<address>...</address>  
<base>  
<img>  
<link>

## Jadvallar

<caption>...</caption>  
<col>  
<colgroup>...</colgroup>  
<table>...</table>  
<tbody>...</tbody>  
<td>...</td>  
<tfoot>...</tfoot>  
<th>...</th>  
<thead>...</thead>  
<tr>...</tr>

## Matnni formatlash

<b>...</b>  
<basefont>  
<big>...</big>  
<cite>...</cite>  
<code>...</code>  
<dfn>...</dfn>

<font>...</font>  
<kbd>...</kbd>  
<s>...</s>  
<samp>...</samp>  
<small>...</small>  
<strike>...</strike>  
<strong>...</strong>  
<sub>...</sub>  
<sup>...</sup>  
<tt>...</tt>  
<u>...</u>  
<var>...</var>

## Formalar

<button>...</button>  
<form>...</form>  
  <input>  
  <isindex>  
  <label>...</label>  
  <optgroup>...</optgroup>  
  <option>...</option>  
  <select>...</select>  
  <textarea>...</textarea>

## Freymlar

<frame>  
<frameset>...</frameset>  
<iframe>...</iframe>  
<noframes>...</noframes>

---

<a>...</a>

Hujjatda giperishora hosil qiladi.

### Atributlari:

href=[url]

Ishora bo'yicha o'tilishi kerak bo'lgan hujjatning URL adresi ko'rsatiladi.

name=[nom]

Ishora ko'rsatayotgan bo'lakka o'tiladi, ya'ni yakor hosil qiladi.

target=[nom]

Ko'rsatilgan hujjatda ochilishi kerak bo'lgan kadr yoki oynaning nomi keltiriladi.

Datafld=[maydon nomi]

Ma'lumotlar bazasi maydoni bilan bog'lanish.

Datasc=[nom]

Ma'lumotlar bazasi bilan bog'lanish.

Src=[url]

Manba adresi.

Misol:

1. Giperishora:

<a href=<http://www.talaba.uz>> Talabalar sayti</a>

2. Yakor:

<a name=info> Qo'shimcha ma'lumot</a>

3. Qo'shimcha ma'lumotli **index.html** nomli hujjat bo'lagiga giperishora:

<a href=index.html#info>To'liqroq...</a>

---

<address>...</address>

Teg joylashgan hujjat muallifi haqidagi muloqot ma'lumotini berish.

Atriburlari: yo'q.

Misol:

<address><a href=<http://Microsoft.com>>Microsoft kompaniyasi</a></address>

---

<applet>...</applet>

HTML-hujjatga Java-apletlarni o'rnatish. Bu element o'rniga

<object>...</object> tegini ishlatish maqsadga muvofiq.

Atributlari:

codebase=[url]

Apletning asosiy URL adresi. Odatda aplet kodi joylashgan papkani beradi.

code=[qator]

Kompilyatsiyalangan apletni saqlovchi klass fayli nomi.

alt=[qator]

Aplet o'rniga chiqadigan matn.

name=[nom]

Apletlarni bir hujjatda bir-birini topishini ta'minlovchi alohida aplet nomi.

width=[son]

Apletni tasvirlovchi maydonning pikselleridagi boshlang'ich kengligi. Bunda aplet hosil qilayotgan oynalar va dialoglar hisobga olinmaydi.

height=[son]

Apletni tasvirlovchi maydonning pikselleridagi boshlang'ich balandligi. Bunda aplet hosil qilayotgan oynalar va dialoglar hisobga olinmaydi.

align=top | middle | bottom | left | right

Hujjat sahifasida joylashgan aplet maydonini tekislash: **top** -yuqoridan; **middle** - markazdan; **bottom** - pastdan; **left** - chapdan; **right** - o'ngdan.

hspace=[son]



Aplet chegarasining chap va o'ng tomonlaridan bo'sh qolgan sohaning piksellardagi balandligi.

vspace=[son]

Aplet chegarasining yuqori va pastki qismlaridan bo'sh qolgan sohaning piksellardagi balandligi.

Misol:

<applet

codebase="<http://www.server.com/pgv/myclass.class>"

code=applet.class

alt="Aplet Javaga mo'ljallangan brauzerda ishlaydi."

name="AppletInstance"

width=300

height=300

align=middle> </applet>

---

<area>

Sichqon bosilishiga ta'sir qiluvchi navigatsion xarita maydonini aniqlash. Navigatsion xaritaning o'zi <map>...</map> elementi bilan aniqlanadi.

Atributlari:

shape=rect | circle | poly

Maydon shakli: **rect** – to'g'ri to'rtburchak (jimlik bo'yicha), **circle**-aylana, **poly**-ko'pburchak.

coords=[koordinatalar]

Maydon koordinatalari. Bu atributning qiymatlari **shape** atributining qiymatlariga bog'liq:

shape=rect coords="x1,y1,x2,y2"

x1, y1 yuqori chap burchak koordinatalari,

x2, y2 pastki o'ng burchak koordinatalari.

shape=circle coords="x,y,r"

x,y – aylana markazi koordinatasi; r – aylana radiusi (piksellarda).

shape=poly coords="x1,y1,x2,y2,x3,y3,...,xn,yn"

x1,y1,x2,y2,x3,y3,...,xn,yn – ko'pburchak cho'qqilarining (burchaklarining) koordinatasi.

href=[url]

Ishora bo'yicha o'tilishi kerak bo'lgan hujjatning URL-adresi.

nohref

Berilgan soha giperishora sifatida ishlatilmaydi, ya'ni hech qanday ta'sir bo'lmaydi.

alt=[qator]

Tasvir o'rniga chiqariluvchi muqobil matn.

Misol:



<map name="map">

```
<area href="doc.html" alt="Hujjat" shape="rect" coords="0,0,118,28">
<area href="search.html" alt="Qidiruv" shape="rect" coords="184,0,276,28">
<area href="go.html" alt="O'tish" shape="circle" coords="184, 200,60">
<area href="faq.html" alt="Savollar" shape="poly"
coords="276,0,373,28,50,50,276,0">
</map>
```

---

**<b>...</b>**

Matnni quyuq shriftda tasvirlaydi.

Atributlari: Yo'q.

Misol:

Bu matn <b> Quyuq shrift </b> da yozildi.

---

**<base>**

<a>...</a> elementning href atributida hujjatning URL-adresiga nisbatan baza URL-adresini keltirish.

Atributlari:

Href=[url]

Baza URL-adres keltiriladi.

Misol:

```
<base href=http://www.anekdot.ru> bo'lganda
<a href="lists.html">Misollar</A> bog'lanish quyidagi bog'lanishga ekvivalent
<a href=http://www.anekdot.ru/lists.html>Misollar</A>
```

---

**<basefont>**

Matnning asosiy o'lchamini o'rnatadi. <font>...</font> elementi yordamida shrift o'lchamini o'zgartirishga harakat qilinsa, <basefont> tegi o'rnatgan baza o'lchamga nisbatan oladi. Agar <basefont> elementi keltirilmasa, jimlik bo'yicha 3 o'lchamni oladi. <basefont> elementini o'rniga jadval stillari tilining mos xossalarini ishlatish maqsadga muvofiq.

Atributlari:

size=[son]

Shrift o'lchamini o'rnatadi. Qiymatlari:

- 1 dan 7 gacha bo'lgan butun son. Foydalanuvchi brauzeriga bog'liq bo'lgan shriftning fiksirlangan o'lchami. Hamma brauzerlar ham 7 ta o'lchamni ko'rsata olmaydi.
- -7 dan +7 gacha shrift nisbiy o'lchamini tavsiflaydi. +1 qiymat bir o'lcham katta, -3 qiymat uch o'lcham kichik shriftni bildiradi. Barcha qiymatlar 1 dan 7 gacha shkalaga to'g'ri keladi.

face=[qator]

Bu atribut foydalanuvchi brauzeri qidirishi lozim bo'lgan shriftlar nomini (agar 1 nechta bo'lsa vergul bilan ajratiladi) aniqlaydi. Agar foydalanuvchi brauzerida

tanlangan shrift bo'lmasa, uni ko'rsata olmaydi va o'rniga boshqa simvollar bilan (masalan, ) to'ldiriladi.

color =[rang]

Matn rangini o'rnatadi. Ranglarning sonli qiymatlari va nomlari ma'lumotnoma so'ngida keltirilgan.

Misol:

Bu matn jimlik bo'yicha (3) qiymatli shrift o'lchamida. <basefont size=5> Bu esa (5) o'lchamli shriftida.

---

<big>...</big>

Matnni yirik shriftida tasvirlash.

Atributlari: Yo'q.

Misol:

Bu - <big> katta </big> matn.

---

<blink>...</blink>

O'chib-yonuvchi element.

---

<blockquote>...</blockquote>

Uzun sitatani alohida abzats yoki abzatslar ketma-ketligi ko'rinishida sitatalash bo'lagi sifatida tasvirlaydi. Ko'pincha chap va o'ngdan chegara tashlab va oddiy matndan boshqa shriftida (kursivda ) chiqariladi.

Atributlari:

cite=[url]

Atributning qiymati sifatida manba hujjat yoki xabarni aniqlovchi URL-adresi keltiriladi.

Misol:

<blockquote> Mening orzuim bor. Bu orzuim millat orzusiga borib taqaladi.

<p> Men shuni orzu qilamanki, millatimiz qoloqlikdan uyg'onadi va o'z dinining tom ma'nosini aniqlaydi. Biz shunga aminmizki, har bir inson teng huquqli bo'lib tug'ilganini his qilishi kerak.</p></blockquote>

---

<body>...</body>

Hujjatning tanasi. Hozirgi kunda <body> ga nisbatan stillar jadvallari tili yordamida tasvirlash maqsadga muvofiqroq.

Atributlari:

Accesskey – tez murojaat tugmasi.

Bgproperties – Fonni siljish-siljimasligini o'rnatadi. Agar **fixed** bo'lsa, fon "qotib" turadi, ya'ni sahifadagi ma'lumotlar ko'rilganda fon siljimaydi.

Bottommargin – pastki maydon.

Leftmargin – chap maydon.

Rightmargin – o'ng maydon.

Scroll=yes | no

Siljitish (prokrutka) imkoniyati.

Topmargin – yuqori maydon.

background=[url]

Fonli tasvirning URL-adresi.

text=[rang]

Matn rangi.

bgcolor=[rang]

Hujjat orqa foni tangi.

link= [rang]

Bosilmagan giperishora rangi.

vlink =[rang]

Bosilgan giperishora rangi.

alink =[rang]

Foydalanuvchi ishorani bosgan vaqtdagi rangi.

Misol:

```
<body bgcolor=white text=black link=red alink=fuchsia vlink=maroon> ...  
</body>
```

---

**<br>**

Yangi qatorga o'tish.

Atributlari:

clear=left | right | all | none

Yangi qatorga tushirilgan bo'lakni **left** – chapga, **right** - o'ngga, **all** – 2 tomonga, **pope** – hech qaerga tekislab yozish.

Misol:

```
<bg>har<bg>bir<bg>so'z<bg>yangi<bg>qatordan <bg> chiqadi.
```

---

**<button>...</button>**

Formada tugma hosil qilinadi. Bu element yordamida hosil qilinadigan tugmalar `<input>...</input>` elementi yordamida hosil qilinadigan tugmalar kabi ishlatiladi, lekin ularning imkoniyati ko'proq. `<button>...</button>` elementida qiymat bo'lishi mumkin. Foydalanuvchi brauzeri `<button>...</button>` tugmasini rel'efli yoki sichqon bosilganda qandaydir effektli ko'rinishda tasvirlashi mumkin. `<input>...</input>` tugmasi esa "tekis" tasvir ko'rinishida bo'ladi.

Atributlari:

name=[nom]

Tugmaning nomi.

value=[qator]

Tugmaning boshlang'ich qiymatini aniqlaydi.

type=submit | reset | button

Tugmaning turini aniqlaydi: **submit** – axborot jo'natish tugmasi, **reset** – formani tozalash tugmasi, **button** — oddiy tugma.

Accesskey – tez murojaat tugmasi.

Datafld – MB maydoni bilan bog'lanish.

Dataformatas – bazadagi ma'lumotlar formati (masalan, **html** yoki **text**)

Datasrc – MB bilan bog'lanish.

Disabled – tugmani nafaol rejimga o'tkazadi.

Type=button | submit | reset

Misol:

```
<button name="submit" type="submit"> axborotni uzatish </button>
```

---

**<caption>...</caption>**

Jadval uchun sarlavhani aniqlaydi. Oddiy shrift bilan tasvirlanadi.

Atributlari:

align=top | bottom | left | right

Tekislash: **top** – yuqoridan, **bottom** – pastdan, **left** – chapdan, **right** – o'ngdan.

Valign=top | bottom

Vertikal bo'yicha tekislash.

Misol:

```
<table>
```

```
<caption> Chet el valyutalari kursi</caption>
```

```
...
```

```
</table>
```

---

**<center>...</center>**

Hujjat bo'laklarini sahifa markazidan tekislash. Bu elementni ishlatish tavsiya etilmaydi. Uning o'rniga stillar jadvallari tilining mos xossalaridan foydalanish mumkin.

Atributlari: Yo'q.

Misol:

```
<center> Bu matn o'rtada bo'ladi </ center >
```

---

**<cite>...</cite>**

Ishora yoki sitatalarni boshqa manbalardan keltirish, masalan, kitob nomiga ishora.

Atributlari: Yo'q.

Misol:

```
Bu sitata <cite> O'tgan kunlar </cite> romanidan olindi.
```

---

**<code>...</code>**

Dastur ko'dini tasvirlash.

Atributlari: Yo'q.

Misol:

Dasturda `<code> a[i++] + b[i++] </code>` ko'rinishidagi ifodadan foydalanish mumkin emas.

---

**<col>**

Jadval ustunlari uchun atributlar aniqlanishini guruhlash imkoniyatini beradi. Bu element ustunlarni strukturaviy guruhlamaydi. Bu ishni `<colgroup>...</colgroup>` elementi bajaradi. `<col>` elementlari bo'sh element hisoblanadi va faqat atributlarni qo'llash uchun ishlatiladi. Ular `<colgroup>...</colgroup>` elementi ichida yoki tashqarisida keltirilishi mumkin.

Atributlari:

`Align=center | left | right`

Tekislash atributi.

`span =[son]`

`<col>` elementi guruhlashtirayotgan ustunlar sonini aniq'lovchi noldan katta butun son jimlik bo'yicha 1 qiymatni oladi, ya'ni `<col>` element bitta ustunni guruhlaydi. Agar bu atributda  $N > 1$  qiymat keltirilsa, bu atribut keyingi  $N-1$  ustunga ta'sir qiladi.

`width=[son]`

Har bir ustunning kengligini aniqlaydi. U `<colgroup>...</colgroup>` elementi **width** atributining qiymatlarini ishlatadi va unga nisbatan yuqoriroq darajada turadi.

Misol:

`<col span="5" width="50">`

---

**<colgroup>...</colgroup>**

Jadval ustunlarini guruhlaydi.

Atributlari:

`Align=center | left | right`

Tekislash atributi.

`Valign=baseline | bottom | middle | top`

Vertikal bo'yicha tekislash.

`span =[son]`

Qiymati noldan katta bo'lgan butun son bilan beriluvchi atribut guruhdagi ustunlar sonini aniqlaydi. Qiymatlar quyidagilarni bildiradi:

- **span** atributi keltirilmasa, `<colgroup>...</colgroup>` elementi bitta ustundan iborat guruhni aniqlaydi.
- Agar **span** atributining qiymati  $N > 0$  bo'lsa, `<colgroup>...</colgroup>` elementi  $N$  ta ustundan iborat guruhni aniqlaydi.

Agar `<colgroup>...</colgroup>` elementida bir yoki bir nechta **col** elementi bor bo'lsa, foydalanuvchi brauzeri bu atributni tashlab ketadi.

width=[son]

Joriy guruhdagi har 1 ustunning kengligini aniqlaydi. Piksel, foiz va nisbiy qiymat ko'rinishidagi standart qiymatlardan tashqari yana 0\* (yulduzchali nol) maxsus formasi ishlatilishi mumkin. Bu guruhdagi har bir ustun kengligi minimal bo'lishi kerakligini bildiradi. 0\* qiymatni ishlatganda brauzerlar jadvalni ketma-ket generatsiya qila olmaydi.

Misol:

30 ta ustundan iborat, har bir ustuni 20 pikselga teng bo'lgan jadval:

```
<colgroup span="30" width="20"></colgroup>
```

Bunday yozilish quyidagi yozilishga nisbatan ancha sodda:

```
<colgroup>
```

```
<col width="20">
```

```
<col width="20">
```

```
... col ning barcha 30 ta elementlari...
```

```
</colgroup>
```

---

**<comment>...</comment>**

Izohni keltirish uchun ishlatiladi.

---

**<dd>...</dd>**

<dl>...</dl> elementida aniqlanish atamasini tasvirlaydi. Aniqlanishlar ro'yxati ro'yxatning boshqa turlaridan 2 ta qismga bo'linishi bilan farq qiladi, ya'ni atama va aniqlanishlar. Atama <dt>...</dt> elementi bilan belgilanadi. Aniqlanish <dd>...</dd> elementi bilan belgilanadi. Bir nechta <dt>...</dt> elementlar bitta <dd>...</dd> elementida keltirilishi mumkin, ya'ni bir nechta atamalar bitta aniqlanish bilan keltirilishi mumkin. Yopiluvchi teg yozilishi shart emas.

Atributlari: Yo'q.

Misol:

```
<dt> Aylana
```

```
<dd> x,y nuqtadan bir xil uzoqlikda joylashgan nuqtalarning geometrik o'rni
```

---

**<dfn>...</dfn>**

Berilgan so'z aniqlanish ekanligini ko'rsatadi. Oddiy matnga nisbatan boshqacha belgilanish bilan, masalan, kursiv bilan tasvirlanishi ko'zda tutilgan. Lekin ko'p brauzerlar uni oddiy matn sifatida tasvirlaydi.

Atributlari: Yo'q.

Misol:

```
<dfn> Kompyuter </dfn> axborotni qayta ishlovchi universal mashina.
```

---

**<dir>...</dir>**



Katalogdagi raqamlanmagan ro'yxat. Amaliyotda ko'p brauzerlar <dir>...</dir> elementini <ul>...</ul> elementi kabi tasvirlaydi. Bu tegdan foydalanmagan ma'qul.

Atributlari:

compact

Tasvirlashni yanada ixchamroq amalga oshiradi.

Misol:

```
<dir>
  <li>bir
  <li>ikki
  <li>uch
</dir>
```

---

**<div>...</div>**

Hujjatning turli qismlariga turli xil tekislanishlar: chapdan, markazdan, o'ngdan qo'llanilish imkonini beruvchi hujjatni bo'lish elementi. Brauzerlar har doim ham <div>...</div> elementidan oldin va keyin abzats tashlab ketmaydi.

Atributlari:

align=left | center | right | justify

Misol:

```
<div align=center>Bu matn markazda joylashadi.</div>
```

---

**<dl>...</dl>**

Atamalar, nomlar, tavsiflar va boshqalar uchun aniqlanishlar ro'yxatini tasvirlaydi. Aniqlanishlar ro'yxati ro'yxatning boshqa turlaridan 2 ta qismga bo'linishi bilan farq qiladi, ya'ni atama va aniqlanishlar. Atama <dt>...</dt> elementi bilan belgilanadi. Aniqlanish <dd>...</dd> elementi bilan belgilanadi. Bir nechta <dt>...</dt> elementlar bitta <dd>...</dd> elementida keltirilishi mumkin, ya'ni bir nechta atamalar bitta aniqlanish bilan keltirilishi mumkin. Yopiluvchi teg yozilishi shart emas.

Atributlari:

Compact – tasvirlash turining ixcham turi.

Misol:

```
<dl compact>
  <dt> A
  <dd> Alifboning 1-harfi
  <dt> B
  <dd> Alifboning 2-harfi
</dl>
```

---

**<dt>...</dt>**

`<dl>...</dl>` elementi bilan hosil qilingan aniqlanishlar ro'yxatidagi atamani tavsiflaydi. Aniqlanishlar ro'yxati ro'yxatning boshqa turlaridan 2 ta qismga bo'linishi bilan farq qiladi, ya'ni atama va aniqlanishlar. Atama `<dt>...</dt>` elementi bilan belgilanadi. Aniqlanish `<dd>...</dd>` elementi bilan belgilanadi. Bir nechta `<dt>...</dt>` elementlar bitta `<dd>...</dd>` elementida keltirilishi mumkin, ya'ni bir nechta atamalar bitta aniqlanish bilan keltirilishi mumkin. Yopiluvchi teg yozilishi shart emas.

Atributlari: Yo'q.

---

`<em>... </em>`

Matnni ajratish. Ko'pincha kursiv bilan belgilanadi. Ayrim brauzerlar tagiga chizilish bilan ajratishi mumkin.

Atributlari: Yo'q.

---

`<embed>`

O'rnatilgan ob'yekt.

Atributlari:

`align=left | top | absbottom | absmiddle | baseline | bottom | middle | texttop | right`

`alt=[alternativ matn]`

`code` – Ob'yekt kodi.

`name=[nom]`

Ob'yekt nomi.

---

`<font>....</font>`

Matnning rangi, o'lchami, turini aniqlaydi. Bu teg o'rniga stillar kaskad jadvallarining mos xossalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Atributlari:

`size=[son]`

Shrift o'lchamini o'rnatadi. Qiymatlari:

- 1 dan 7 gacha bo'lgan butun son. Foydalanuvchi brauzeriga bog'liq bo'lgan shriftning fikslangan o'lchami. Hamma brauzerlar ham 7 ta o'lchamni ko'rsata olmaydi.
- -7 dan +7 gacha shrift nisbiy o'lchamini tavsiflaydi. +1 qiymat bir o'lcham katta, -3 qiymat uch o'lcham kichik shriftni bildiradi. Barcha qiymatlar 1 dan 7 gacha shkalaga to'g'ri keladi.

`face=[qator]`

Bu atribut foydalanuvchi brauzeri qidirishi lozim bo'lgan shriftlar nomini (agar 1 nechta bo'lsa vergul bilan ajratiladi) aniqlaydi. Agar foydalanuvchi brauzerida tanlangan shrift bo'lmasa, uni ko'rsata olmaydi va o'rniga boshqa simvollar bilan (masalan, ) to'ldiriladi.

`color =[rang]`

Matn rangini o'rnatadi. Ranglarning sonli qiymatlari va nomlari ma'lumotnoma so'ngida keltirilgan.

---

### **<form>....</form>**

Formani hosil qiladi.

#### Atributlari:

action=[url] | [mailto]

To'ldirilgan va uzatilgan formani qayta ishlash uchun dasturni aniqlaydi. Formani qabul qiluvchi dastur **nom** | **qiymat** ikkiligini aniqlash imkoniga ega bo'lishi kerak. URL–formani dasturga uzatish uchun yoki **mailto** – formani elektron pochtdan yuborish uchun.

Method=get | post

Forma ma'lumotlari to'plamini serverga uzatish uchun ishlatiladigan HTTP usulini aniqlaydi. Jimlik bo'yicha – **get**.

Enctype=[axborot turi]

Agar **method=post** bo'lsa, formani serverga uzatishda ishlatiladigan axborot turini aniqlaydi. Jimlik bo'yicha **application/x-www-form-urlencoded** qiymatni oladi.

**<input type="file">** elementi bilan **multipart/form-data** qiymati ishlatiladi.

Accept-charset=[simvollar to'plami ro'yxati]

Formani qayta ishlash uchun qabul qilayotgan serverga kiritilgan axborot simvollarini to'plami ro'yxatini aniqlaydi.

Accept=[ma'lumot turi ro'yxati]

Formani qabul qilayotgan server to'g'ri ishlashi uchun ma'lumot turi ro'yxatini (vergul bilan ajratilgan) aniqlaydi. **"text/html"**, **"image/png"**, **"image/gif"**, **"video/mpeg"**, **"audio/basic"**, **"text/tcl"**, **"text/javascript"**, **"text/vbscript"**.

name=[nom]

Forma nomi.

#### Misol:

```
<form action="http://comesite.com/prog/user" method="post">  
... forma malumoti...  
</form>
```

---

### **<frame>**

1 ta freym ma'lumoti va ko'rinishini aniqlaydi.

#### Atributlari:

Name=[nom]

Joriy freymga nom beradi.

Bordercolor=[rang]

Freym ramkasi rangi.

Datafld – MB maydoni bilan bog'lanish.

Datasrc – MB bilan bog'lanish.

width=[son]

Frem kengligi.

height=[son]

Freymlar balandligi.

Frameborder=1 | 0

Jimlik bo'yicha 1 qiymatni oladi. 1 - freymlar orasidagi ramka chizig'ini tasvirlash; 0 – ramka chizig'ini ko'rsatmaslik. Agar boshqa freymlarda ramka belgilangan bo'lsa, bu yerda 1 berilsa ham ramka chizig'i ko'rinadi.

Marginheight=[son]

Vertikal joy tashlash, ya'ni freymdagi yuqori va pastki maydonlari o'lchamini piksellarda aniqlaydi. Jimlik bo'yicha qiymat brauzer turiga bog'liq. Qiymat 1 dan katta bo'lishi kerak.

Marginwidth=[son]

Gorizontal joy tashlagan. freymdagi yuqori va pastki maydonlari o'lchamini piksellarda aniqlaydi. Jimlik bo'yicha qiymat brauzer turiga bog'liq. Qiymat 1 dan katta bo'lishi kerak.

Noresize

Foydalanuvchiga freym o'lchamini o'zgartirishni ta'qiqlaydi.

Scrolling=auto | yes | no

Freymlarni siljitish (prokrutkalash).

Scr=[url]

Freymlar joylashgan sahifa (fayl) adresi.

Longdesc=[url]

Uzun tasvifli freymga ishora. Bu **title** atributini to'ldirib keladi. **Title** atributi <base>, <basefont>, <head>, <html>, <meta>, <param>, <script>, <style>, <title> dan boshqa barcha elementlarda ishlatilishi mumkin. <title>...</title> tegi esa HTML–matnda faqat bir marta keltirilishi mumkin.

---

## <frameset>...</frameset>

Foydalanuvchi oynasida to'g'ri to'rtburchak ko'rinishidagi freymlar to'plamini hosil qiladi.

### Atributlari:

Border=[son]

Freymlar orasidagi ramka qalinligi.

Bordercolor=[rang]

Freymlar orasidagi ramka rangi.

Cols=[ro'yxat]

Freymlarning vertikal joylashganligini aniqlaydi. Jimlik bo'yicha 100%, ya'ni bitta ustun olinadi. \* berilsa, qolgan bo'sh olinadi.

Rows=[ro'yxat]

Freymlarning gorizontal joylashishini aniqlaydi. Jimlik bo'yicha 100%, ya'ni bitta satr olinadi. \* berilsa, qolgan bo'sh olinadi.

Frameborder=yes | no | 0 | 1

Freymlar orasidagi ramka.

Framespacing=[son]

Freymlar orasidagi masofa.

Misol:

```
<frameset rows="30%, 70%" cols="1*,250,3*">...</frameset>
```

---

**<h1>...</h1>, <h2>...</h2>, ... , <h6>...</h6>**

Sarlavha hosil qiladi. <h1> - eng kattasi, <h6> - eng kichigi.

Atributlari:

Align=left | center | right

---

**<head>...</head>**

Sahifa haqidagi ma'lumot: sarlavha, kalit so'zlar va boshqa ma'lumotlar.

<head>...</head> elementida albatta bitta element - </title>...</title> joylashishi shart. Boshqa elementlar esa <isindex>, <base>, <meta>, <link>, <style>...</style>, <script>...</script> ixtiyoriy tartibda keltirishi mumkin.

Atributlari:

Profile=[url];

Bir yoki bir necha metaaxborot xususiyatlarining joylashish o'rnini ko'rsatadi.

---

**<hr>**

Gorizontal lineyka (chizg'ich).

Atributlari:

Align=left | center | right

Noshade – agar bu atribut o'rnatilsa, foydalanuvchi brauzeri lineykani bitta rang bilan ichini bo'yaydi.

Size=[son]

Qalinligi (balandligi).

Width=[uzunligi]

Lineyka uzunligini foiz yoki piksellarda aniqlaydi. Jimlik bo'yicha 100% ishlatiladi.

Misol:

```
<hr align=left noshade size=5 width=50>
```

---

**<html>...</html>**

Html tilining yuqori darajali elementi.

Atributlari:

Version=[qator]

HTML versiyasini bildiradi. Bu atributni ishlatmagan ma'qul.

---

**<i>...</i>**

Matnni kursiv bilan tasvirlash.

Atributlari: yo`q.

---

**<iframe>**

Matn bo'lagiga freymni joylashtirish imkonini beradi. Bu element **<object>...</object>** elementiga o'xshash bo'lib, bir HTML-hujjatni boshqasiga qo'yish uchun ishlatiladi.

Atributlari:

Name=[nom]

Joriy freymga nom beradi. Bu nomni boshqa joyda giperishora sifatida ishlatish mumkin.

Longdesc=[url]

Uzun tavsifli freymga ishora.

Scr=[url]

Freym sifatida chaqirilayotgan faylning url-adresi.

Scrolling=auto | yes | no

Freymni siljitish (prokrutka) haqida axborot beradi.

Frameborder=1 | 0

Freym chegarasi chizig'ini brauzerda tasvirlash (1) yoki tasvirlamaslik imkonini beradi. Agar boshqa freymlarda 1 berilgan bo'lsa, siz ushbu joriy freymga 0 qiymat bersangiz ham freym chegarasi chizig' aks ettiriladi.

Marginwidth=[son]

Freymning chap va o'ng maydonlarida bo'sh qoladigan soha. Piksellarda aniqlanadi. Jimlik bo'yicha qiymatini brauzer belgilaydi.

Marginheight=[son]

Freymning yuqori va quyi maydonlarida bo'sh qoladigan soha. Piksellarda aniqlanadi. Jimlik bo'yicha qiymatini brauzer belgilaydi.

Align=left | right | center | justify

Border=[son]

Freym orasidagi ramka qalinligi.

Bordercolor=[rang]

Freym orasidagi ramka rangi.

Datafld – MB maydoni bilan bog'lanish.

Datasrc – MB bilan bog'lanish.

width=[son]

Freym kengligi.

height=[son]

Freym balandligi.

Noresize

Foydalanuvchiga freym o'lchamini o'zgartirishni ta'qiqlaydi.

hspace=[son]

Freym chegarasining chap va o'ng tomonlaridan bo'sh qolgan sohaning piksellardagi balanligi.

vspace=[son]

Freyms chegarasining yuqori va pastki qismlaridan bo'sh qolgan sohaning piksellardagi balandligi.

Framespasing=[son]

Freyms va boshqa ma'lumotlar orasidagi masofa.

---

**<img>**

Grafik element (rasm yoki videofragment ) o'rnatish.

Atributlari:

src=[url]

O'rnatilishi kerak bo'lgan ob'yektning url-adresi.

alt=[qator]

O'rnatilishi kerak bo'lgan ob'yektga mos keluvchi alternativ (muqobil) matn.

Longdesc=[url]

Uzun tavsifli tasvirga ishorani aniqlash. Ushbu tavsif **alt** atributi bilan berilgan qisqa tavsifni to'ldirishi kerak. Agar tasvir navigatsion xarita bilan bog'langan bo'lsa, bu atributda u haqida axborot keltirilishi kerak. Bu serverli navigatsion xaritalar uchun juda muhimdir.

width=[son]

Tasvir kengligi.

height=[son]

Tasvir balandligi.

Border=[son]

Tasvir ramkasi chegarasi chizig'ining qalinligi.

Datafld – MB maydoni bilan bog'lanish.

Datasrc – MB bilan bog'lanish.

hspace=[son]

Tasvir chegarasining chap va o'ng tomonlaridan bo'sh qolgan sohaning piksellardagi balandligi.

vspace=[son]

Tasvir chegarasining yuqori va pastki qismlaridan bo'sh qolgan sohaning piksellardagi balandligi.

Name=[nom]

Grafik elementga nom beradi. Bu nomni boshqa joyda giperishora sifatida ishlatish mumkin.

dynsrc=[url]

Videofragment adresi.

loop=[son]

Videofragmentning qaytarilish soni (agar -1 bo'lsa, cheksiz).

lowsrc=[url]

Alternativ (muqobil) rasm adresi.

usemap=[url]



Navigatsion xaritani element bilan bog'laydi. Navigatsion xarita <map>... </map> elementi yordamida aniqlanadi. **Usemap** ning qiymati <map> dagi **name** atributining qiymati bilan bir xil bo'lishi kerak.

Ismap

Server navigatsion xaritasini aniqlaydi.

Misol :

Faol maydon serverli ishorani aniqlaydi. Shunga ko'ra, tasvirga sichqon bosilganda tasvir koordinatalari serverga uzatiladi:

```
<a href="http://www.acme.com/cgi-bin/competition">
```

```
 </a>
```

---

## <Input>

**Type** atributi qiymatiga bog'liq boshqaruvchi elementni hosil qiladi.

Atributlari:

Type=text | password | checkbox | radio | submit | reset | file | hidden | image | button.

Text – bir qatorli matn kiritish maydoni.

Password – **text** atributiga o'xshash, lekin kiritilgan matn ko'rinmaydi.

Checkbox – bayroqcha.

Radio – pereklyuchatel (o'tkazgich).

Submit – ma'lumot uzatish tugmasi.

Image – ma'lumot uzatish grafik tugmasi. **Src** atributida ko'rsatilgan URL-adresdagi tasvir tugmaga joylashtiriladi.

Reset – tozalash tugmasi.

Button – oddiy tugma.

Hidden – ko'rinmas boshqaruvchi element.

File – faylni tanlash uchun boshqaruvchi element. Brauzerlar faylning joriy nomi sifatida **value** atributi qiymatini ishlatishi mumkin.

Name=[nom]

Value=[qator]

Boshqaruvchi elementning boshlang'ich qiymati. **Type=radio** bo'lganda **value** keltirilishi shaert.

Size=[son]

Boshqaruvchi element kengligi.

Maxlength=[son]

Type=text | password bo'lganda qatorning maksimal uzunligi.

Checked

Type=radio | checkbox bo'lganda bayroqcha yoki o'tkazgich tanlanganligini bildiradi.

Src=[url]

Type=image bo'lsa, tasvirning URL-adresi.

Accesskey – tez murojaat tugmasi.

Disabled – boshqaruvchi elementni nafaol rejimga o'tkazadi.

Readonly - boshqaruvchi elementni faqat o'qish uchun rejimga o'tkazadi.

---

**<kbd>... </kbd>**

Foydalanuvchi kiritishi kerak bo'lgan matn.

Atributlari: yo'q.

---

**<label>... </label>**

Formani boshqarish elementlari axboroti belgisi. Har bir <label>... </label> elementi bitta formani boshqarish elementi bilan bog'lanadi.

Atributlari:

Accesskey – tez murojaat tugmasi.

Datafld – MB maydoni bilan bog'lanish.

Datasrc – MB bilan bog'lanish.

For=[nom]

Belgini boshqa boshqarish elementi bilan bog'lash. **For** atributining qiymati bog'langan boshqarish elementining **id** atributining qiymati bilan mos kelishi kerak. Id=[nom] atributi HTML ning <base>, <head>... </head>, <html>... </html>, <meta>, <script>... </script>, <style>... </style>, <title>... </title> elementlaridan boshqa elementlarida shu elementga hujjat ichida unikal bo'lgan nomni berish uchun ishlatiladi.

Misol:

```
<form action="http://site.net/program/user" method="post">
<table>
<tr>
<td><label for="fname">Ismi:</label>
<td><input type="text" name="firstname" id="fname">
<tr>
<td><label for="lname">Familiyasi: </label>
<td><input type="text" name="lastname" id="lname">
</table>
</form>
```

---

**<li> ... </li>**

Ro'yxat elementini tasvirlash.

Atributlari:

value=[son]

Boshlang'ich qiymat.

Type=[belgi]

Ro'yxat turi. Qiymarlari:

Tartiblangan ro'yxat uchun 1, a, A, i, I.

1 – arab raqamlari;

a – kichik lotin hariflari;

A – katta lotin hariflari;

i - kichik rim raqamlari;

I – katta rim raqamlari.  
Markerlangan ro'yxat uchun "disc", "square", "circle".

---

### <link>... </link>

Boshqa hujjat bilan bog'lanish. <a>... </a> elementidan farqli ravishda bu element faqat <head>... </head> bo'limida keltiriladi.

#### Atributlari:

disabled – bog'lanish imkonini bermaydi.

Href=[url]

Web-resursning joylashish o'rnini aniqlaydi.

Rel=[ishoralar turlari ro'yxati]

Bog'lanish turi. Uning qiymatlari:

**alternate** - ishora ko'rsatayotgan hujjatning muqobil versiyasi.

**Stylesheet** - tashqi stillar jadvali. **Alternate** bilan birga stillar jadvallari uchun ishlatiladi.

**Start** - to'plamdagi birinchi hujjat.

**Next** - hujjatlar ketma-ketligidagi keyingi hujjat.

**Prev** – oldingi hujjat. Ayrim brauzerlarda **previous**.

**Contents** – mundarija bo'lib kelayotgan hujjat. Ayrim brauzerlarda **toc**.

**Index** – joriy hujjatga ko'rsatkich bo'lib kelayotgan hujjat.

**Glossary** – joriy hujjatga taalluqli atamalar mundarijasi hujjati.

**Copyright** - joriy hujjat uchun mualliflik huquqi haqida axborot.

**Chapter** – hujjatlar to'plamida bob sifatida kelayotgan hujjat.

**Section** – hujjatlar to'plamida bo'lim sifatida kelayotgan hujjat.

**Subsection** - hujjatlar to'plamida bo'limcha sifatida kelayotgan hujjat.

**Appendix** - hujjatlar to'plamida ilova sifatida kelayotgan ilova hujjat.

**Help** – boshqa axborot resurslariga ishora-ma'lumotnoma. Yanada to'liqroq axborotni saqlovchi hujjat.

**Bookmark** – kengaytirilgan hujjatdagi kalit so'zga ishora. Uni belgilash uchun **title** atributini ishlatish mumkin.

Type=[tur]

Boshqa hujjat turi.

Rev=[ishoralar turlari ro'yxati]

Href bilan belgilanuvchi yakordan orqaga qaytish. Bu atributning qiymati bo'lib, ishoralar turlari ro'yxati keladi (**rel** atributiga qarang).

---

### <listing>

Dastur listingi.

---

### <map>... </map>

Bir yoki bir nechta HTML elementlari: <img>, <object> yoki <input> bilan bog'lanishi mumkin bo'lgan mijoz navigatsion haritasini (grafik ishoralar

haritasi) hosil qiladi. Navigatsion xarita element bilan **usemap** atributi yordamida bog'lanadi.

Navigatsion xaritaning ikki turi mavjud:

1) server

2) mijoz (kliyent)

mijoz navigatsion xaritalar server navigatsion xaritaga nisbatan keng ko'lamli hisoblanadi.

Atributlari:

name=[nom]

<map>... </map> elementi bilan aniqlanuvchi navigatsion xaritaning nomi.

---

<marque>

“yuguruvchi” qator.

Atributlari:

Accesskey – tez murojaat tugmasi.

Datafld – MB maydoni bilan bog'lanish.

Datasrc – MB bilan bog'lanish.

Dataformatas – bazadagi ma'lumotlar formati (masalan, **html** yoki **text**)

hspace=[son]

“Yuguruvchi” qatorning chap va o'ng tomonlaridan bo'sh qolgan sohaning piksellardagi balandligi.

vspace=[son]

“Yuguruvchi” qatorning yuqori va pastki qismlaridan bo'sh qolgan sohaning piksellardagi balandligi.

width=[son]

“Yuguruvchi” qator kengligi.

height=[son]

“Yuguruvchi” qator balandligi.

Behavior=scroll | slide | alternate

Bgcolor=[rang]

Fon rangi.

Direction=left | right | down | up

Qatorning chiqishi.

Loop=[son]

Harakatlar takrorlanishi soni.

Scrollamount=[son]

Siljish qadami.

Scrollldelay=[son]

Siljishlar orasidagi vaqt (millisekund).

Truespeed – siljishlar tezligining aniq hisobi.

---

<menu>... </ menu>

Menyuga o'xshash formatdagi axborot (markerlangan ro'yxat). Bitta ustundan iborat bo'lgan ro'yxatlarda menyuni ishlatish uchun mo'ljallangan. <ul>... </ul> elementi strukturasi bilan bir xil. <menu>... </menu> elementi ishlatilganda kalit so'zlardan iborat menyu yorqinlashadi. Menyudan tanlash imkonini berish uchun <a>...</a> elementidan foydalanish mumkin. <menu> o'rniga <ul> tavsiya etiladi.

Atributlari:

Compact – menuning ixcham turi.

Misol:

```
<menu>
<li> ko'chirish
<li> o'rnatish
<li> qidirish
<li> kesib olish
</menu>
```

---

**<meta>**

Hujjat haqida ma'lumot-metama'lumot berish.

Atributlari:

Name=[nom]

Hujjat xususiyatlari nomi.

Content=[qator]

Hujjat xususiyatlari qiymati.

Scheme=[qator]

Hujjat xususiyatlari qiymatlarini interpretatsiya qilish uchun ishlatiladigan sxema nomi.

Http-equiv=[qator]

**name** atributi o'rniga ishlatilishi mumkin.

Misol:

```
<meta http-equiv="content-type" content="text/html" charset="windows-1251">
```

---

**<nobr>**

Qatorni keyingi qatorga tushishini ma'n qiladi.

---

**<noframes>... </noframes>**

Freymlarni ko'rsata olmaydigan brauzerlar uchun ishlatiladi.

Atributlari: yo'q.

---

**<noscript>... </ noscript>**

Brauzer stsenariy (skript)larni ko'rsata olmaydigan hollarda ishlatladi.

Atributlari: yo'q.

---

### **<object>... </ object>**

Ma'lumotlar generatsiyasini boshqarish imkonini beradi. Ko'p brauzerlarda ma'lumotlarning asosiy turlari: matn, GIF formatidagi rasm, ranglar, shriftlar va boshqa grafik elementlarni generatsiya qilish uchun mexanizmlar o'rnatilgan. Bu element **<head>... </ head>** elementi ichida keltirilishi mumkin.

#### Atributlari:

Accesskey – tez murojaat tugmasi.

align=absbottom | absmiddle | baseline | bottom | left | right | middle | texttop | top

Classed=[url]

**data** atributi bilan birgalikda ob'ektning joylashish o'rni sifatida yoki ob'ekt turiga qarab unga muqobil sifatida ishlatilishi mumkin.

Codebase=[url]

**Classid**, **data** va **archive** atributlarida berilgan nisbiy url-adreslariga ruxsat beruvchi boshlang'ich yo'lni aniqlaydi. Jimlik bo'yicha joriy hujjatning boshlang'ich url-adresi ishlatiladi.

Codetype=[ma'lumot turi]

Data=[url]

Ma'lumotlarning joylashish o'rnini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Agar url-nisbiy adresi berilsa, **codebase** atributiga nisbatan interpretatsiya qilinishi kerak.

Datafld – MB maydoni bilan bog'lanish.

Datasrc – MB bilan bog'lanish.

height=[son]

Ob'yektning balandligi.

Disabled – ob'yektga murojaatni ma'n qiladi.

Type=[ob'yekt turi]

**Data** atributi bilan berilgan ma'lumotlar turini aniqlaydi.

Declare

Agar bu atribut ko'rsatilsa, **<object>... </ object>** elementi faqat e'lon bo'lib qoladi.

Standby=[qator]

Brauzer ob'yekt ma'lumotlarini yuklash paytida generatsiya qila oladigan xabar.

#### Misol:

**<p>**

**<object classid="http://www.rusia.ru/analogclock.ru">**

**</object>**

---

### **<ol>... </ol>**

Tartiblangan (raqamlangan) ro'yxat.

#### Atributlari:

Type=[stil]

Ro'yxat turi. Qiymatlari:

1 – arab raqamlari;  
a – kichik lotin hariflari;  
A – katta lotin hariflari;  
i - kichik rim raqamlari;  
I – katta rim raqamlari.

Start=[son]

Birinchi elementning boshlang'ich qiymati. Jimlik bo'yicha 1.

Compact – menuning ixcham turi.

Misol:

```
<ol type=1 start=5>  
<li> kompyuter  
<li> printer  
<li> skaner  
</ol>
```

---

**<optgroup>... </optgroup>**

Forma menyusida tanlash variantlarini mantiqiy guruhlash. Bu element albatta <select>... </select> elementida aniqlanishi kerak. Ayrim brauzerlar qo'llay olmaydi.

Atributlari:

Label=[qator]

Variantlar guruhlari belgisi.

Misol:

```
<form action= http://somesite.com/prog/someprog mehtod= "post">  
<p> <select name= "menu">  
<optgroup label= "file"> Fayl  
<option label= "new"> Yangi  
<option label= "open"> Ochish  
<option label= "save"> Saqlash  
</optgroup>  
<optgroup label= "edit"> Tahrirlash  
<option label= "copy"> Nusxa olish  
<option label= "paste"> O'rnatish  
</optgroup>  
</select></form>
```

---

**<option>... </option>**

Matndagi bitta element.

Atributlari:

selected

Bu mantiqiy atribut o'rnatilsa variant oldindan tanlanadi.

Value=[qator]

Boshqaruvchi elementning joriy qiymatini aniqlaydi.



Label=[qator]

Variant uchun <option>... </option> ga nisbatan qisqaroq belgini aniqlaydi.

